



MILLIY ARMIYA – DINA YURT QALQONI, TINCHLIGIMIZ POSBONI!

VATAN UCHUN, MILLAT UCHUN, XALQ UCHUN!

VATANPARVAR

30 *iyun*
YOSHLAR KUNI

ARMONI BO'LMASIN AZIZ YOSHLARNI

Yoshlik gullagan bog',
Yoshlar niholdir.
Har bog'ning gullari,
Bog'boni bo'lsin.
Har yoshning yonida joniga jo bir
Yo'lboshchisi bo'lsin,
Sarboni bo'lsin.

Armoni bo'lmasin aziz yoshlarni.

Tarixni tebratib turgan yurtidir bu,
Dunyoning yarmini qurgan yurtidir bu.
Ko'rsa, faqat zafar ko'rgan yurtidir bu,
Avlodlari aning davomi bo'lsin.

Armoni bo'lmasin aziz yoshlarni.

O'n ikkida o'g'li elga bosh bo'lgan,
Er bo'lgandir, elga yelkadosh bo'lgan.
Bu elatning boshida quyosh bo'lgan,
Vorislari davr-u davroni bo'lsin.

Armoni bo'lmasin aziz yoshlarni.

Muhammadali G'AFFOROV,
"Vatanparvar",
O'zbekiston Yozuvchilar
uyushmasi a'zosi



IJTIMOIY-SIYOSIY, MA'NAVIY-MA'RIFIY,
HARBIY-VATANPARVARLIK GAZETASI

GAZETA 1992-YILNING
24-iyunidan chiqqan boshlagan
www.mv-vatanparvar.uz

2026-YIL 3-IYUL
№27 (3193)



“Eng ulugʻ, eng aziz” koʻrik-tanloviga

“YAGONA VATAN, YAGONA XALQ BOʻLIB,

Mustaqillik har qanday xalqning eng buyuk boyligi, milliy gʻururi va taraqqiyotining mustahkam poydevoridir. U xalqning oʻz taqdirini oʻzi belgilashi, milliy manfaatlarini himoya qilishi, oʻz kelajagini mustaqil ravishda barpo etishi uchun beqiyos imkoniyat yaratadi. Oʻzbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 35 yilligi nishonlanayotgan bugungi kunda yurtimiz bosib oʻtgan sharaflı taraqqiyot yoʻliga nazar tashlar ekanmiz, mamlakatimiz ulkan siyosiy va iqtisodiy yutuqlarga erishganining guvohi boʻlamiz.

Bugun mustaqillik shunchaki tarixiy sana emas, balki har bir vatandoshimizning qalbida yashaydigan yuksak qadriyat, erkin va farovon hayotning asosiy kafolatiga aylandi. Shu bois bu yilgi mustaqillik bayramining **“Yagona Vatan, yagona xalq boʻlib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!”** degan ezgu gʻoya ostida nishonlanishi chuqur ramziy maʼnoga ega. Zero mazkur gʻoya mamlakatimiz taraqqiyotining bugungi bosqichini, xalqimizning ezgu intilishlari va umummilliy maqsadlarini oʻzida mujassam etadi.

Mustaqillik yillari davomida mamlakatimizda davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida keng koʻlamli islohotlar amalga oshirildi. Milliy davlatchilik asoslari mustahkamlandi, demokratik tamoyillarga tayangan huquqiy davlat va kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etish yoʻlida muhim qadamlar tashlandi. Konstitutsiya va qonun ustuvorligini taʼminlash, inson huquq va erkinliklarini himoya qilish, davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish, ochiqlik va shaffoflikni taʼminlash borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Iqtisodiy sohada erishilgan natijalar ham mustaqillikning amaliy samarasi sifatida eʼtirof etishga arziydi. Jumladan, zamonaviy sanoat korxonalari barpo etildi, transport va kommunikatsiya infratuzilmasi tubdan yangilandi, qishloq xoʻjaligi, energetika, qurilish va xizmat koʻrsatish tarmoqlari izchil rivojlanmoqda. Tadbirkorlikni qoʻllab-quvvatlash, investitsiya muhitini yaxshilash va yangi ish oʻrinlarini yaratishga qaratilgan islohotlar aholi farovonligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Umuman olganda, soʻnggi yillarda Yangi Oʻzbekistonni barpo etish yoʻlida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar mamlakat hayotining barcha sohalarini qamrab oldi. Davlat boshqaruvini takomillashtirish, qonun ustuvorligini taʼminlash, inson huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish, iqtisodiyotni erkinlashtirish, investitsiya muhitini yaxshilash, tadbirkorlikni qoʻllab-quvvatlash hamda aholi farovonligini yuksaltirishga qaratilgan chora-tadbirlar Yangi Oʻzbekiston taraqqiyotining mustahkam poydevorini yaratmoqda.

Shuningdek, Yangi Oʻzbekiston gʻoyasi asosida amalga oshirilayotgan islohotlar mamlakat taraqqiyotini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Inson qadrini ulugʻlash, xalq manfaatlarini taʼminlash, adolat va qonuniylik tamoyillarini hayotga tatbiq etish davlat siyosatining ustuvor yoʻnalishiga aylandi. Bu jarayonlarda har bir fuqaroning faol ishtiroki, jamiyatdagi oʻzaro hamjihatlik va birdamlik alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Eng muhimi, **mamlakatimizda “Inson qadri uchun” degan ezgu tamoyil davlat siyosatining bosh mezoniga aylandi.** Barcha islohotlar markazida inson manfaati, uning huquq va erkinliklari, munosib hayot kechirishini taʼminlash maqsadi turibdi. Bu esa mustaqillikning haqiqiy mazmun-mohiyatini yanada boyitmoqda.

“Yagona Vatan” tushunchasi yurtimizning har bir qarich yeri, muqaddas tuprogʻi, betakror tarixi va boy madaniy merosiga hurmatni anglatadi. Bu muqaddas zaminda istiqomat qilayotgan har bir insonning baxtli hayoti, tinchligi va xavfsizligi umumiy maqsadga aylanganda mamlakat taraqqiyoti yanada mustahkam boʻladi.

“Yagona xalq” gʻoyasi esa koʻp millatli Oʻzbekistonda yashovchi barcha millat va elat vakillarining oʻzaro hurmati, hamjihatligi va Vatan taqdiri uchun masʼuliyatini ifoda etadi. Millatlararo totuvlik, diniy bagʻrikenglik va ijtimoiy barqarorlik mamlakatimiz erishgan eng muhim yutuqlardan biri boʻlib, bugun ham Yangi Oʻzbekiston taraqqiyotining mustahkam tayanchi boʻlib xizmat qilmoqda.

Hozirgi murakkab geosiyosiy sharoitda dunyo mamlakatlari turli siyosiy, iqtisodiy va axborot xatarlariga duch kelmoqda. Ana shunday vaziyatda milliy birlikni saqlash, tinchlik va barqarorlikni mustahkamlash, yosh avlodni vatanparvarlik, milliy gʻurur va fidoyilik ruhida tarbiyalash har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Mamlakatimiz mudofaa salohiyatini yuksaltirish, Qurolli Kuchlarni zamonaviy talablar asosida rivojlantirish, chegaralar daxlsizligini taʼminlash va milliy xavfsizlik tizimini mustahkamlash borasida amalga oshirilayotgan islohotlar ham mustaqilligimizning eng ishonchli kafolati hisoblanadi. Chunki tinchlik boʻlgan joyda taraqqiyot, barqarorlik boʻlgan yurtida esa farovonlik qaror topadi. Ana shu ezgu maqsad yoʻlida milliy armiyamiz ham mutlaqo yangi qiyofa kasb etib, zamonaviy talablarga javob beradigan, yuqori jangovar salohiyatga ega boʻlgan Qurolli Kuchlar tizimi shakllantirildi.

Soʻnggi yillarda Prezidentimiz, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qoʻmondoni tomonidan milliy armiyamizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar mudofaa salohiyatini yanada mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Qoʻshinlarni boshqarishning zamonaviy mexanizmlari joriy etildi, jangovar va tezkor tayyorgarlik tizimi takomillashtirildi, harbiy qismlar eng soʻnggi texnika va qurol-aslahalar bilan bosqichma-bosqich jihozlanmoqda. Bu esa har qanday xavf va tahdidlarga munosib javob qaytarish imkoniyatini yanada oshirmoqda.



YANGI HAYOT VA KELAJAK YARATAMIZ!”

E’tiborlisi, o’tgan yili **davlatimiz rahbari tashabbusi bilan harbiy ta’lim tizimi tubdan yangilandi va bu yo’nalishda keng ko’lamli, strategik ahamiyatga ega islohotlar amalga oshirildi**. Xususan, zamonaviy talablar asosida malakali professor-o’qituvchi, tajribali, yuqori salohiyatli harbiy mutaxassislardan iborat Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti tashkil etildi. Ushbu ta’lim dargohida o’quv jarayoni ilg’or xalqaro tajribalarga tayangan holda qayta shakllantirilib, raqamli texnologiyalar, sun’iy intellektga asoslangan ta’lim platformalari, virtual trenajyorlar hamda zamonaviy baholash va monitoring tizimlari bosqichma-bosqich joriy etildi.

Mazkur yangiliklar harbiy kadrlar tayyorlash sifatini yangi bosqichga ko’taribgina qolmay, yoshlarning bilim olishga bo’lgan qiziqishini oshirish, ularda zamonaviy fikrlash, tahlil qilish va tezkor qaror qabul qilish qobiliyatlarini shakllantirishga xizmat qilmoqda. Amaliy mashg’ulotlar va nazariyaning uyg’unligi asosida tayyorlanayotgan harbiy mutaxassislar bugungi kun tahdidlarini teran anglaydigan, zamonaviy jang sharoitida ishonch bilan harakat qila oladigan kadrlar sifatida voyaga yetmoqda.

Bundan tashqari, harbiy xizmatchilar va ularning oila a’zolarini ijtimoiy qo’llab-quvvatlash, munosib xizmat va yashash sharoitlarini yaratish, uy-joy bilan ta’minlash, tibbiy xizmat hamda ijtimoiy kafolatlarni kengaytirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar armiyaning ma’naviy-ruhiy salohiyatini yanada yuksaltirishga xizmat qilmoqda. Chunki **Vatan himoyachisining kuchli ruhiyati, yuksak ma’naviyati va oilasi xotirjamligi mamlakat xavfsizligining muhim omillaridan biri hisoblanadi**.

Shuningdek, harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi ham davlat siyosati darajasiga ko’tarildi. Yoshlarda Vatanga muhabbat, milliy g’urur va fidoyilik tuyg’ularini shakllantirish, ularni harbiy kasbga qiziqtirish, jismonan baquvvat va ma’nan yetuk avlodni tarbiyalashga qaratilgan keng ko’lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Bu esa mamlakatimiz mudofaa qudratini yanada mustahkamlashga xizmat qiluvchi muhim omildir.

Mustaqilligimizning 35 yilligi munosabati bilan mamlakatimizning barcha hududlarida amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari, turli ishlab chiqarish korxonalari, zamonaviy ta’lim va tibbiyot muassasalari, yirik infratuzilma obyektlari, mahallalar va qishloqlarni obodonlashtirishga qaratilgan loyihalar yurtimizda yangi hayot barpo etilayotganining amaliy ifodasidir.

Bu jarayonlarda yoshlarning o’rni alohida ahamiyatga ega. Chunki mamlakat kelajagi bilimli, tashabbuskor, vatanparvar va zamonaviy fikrlaydigan avlod qo’lida. Yoshlarga yaratib berilayotgan keng imkoniyatlar, ta’lim tizimidagi yangilanishlar, innovatsion g’oyalarni qo’llab-quvvatlashga qaratilgan davlat siyosati kelajak taraqqiyotining eng muhim sarmoyasidir.

Shu bilan birga, har bir fuqaroning halol mehnati, tadbirkorligi, fuqarolik mas’uliyati va Vatan ravnaqiga daxldorlik hissi mamlakat taraqqiyotining eng katta harakatlantiruvchi kuchidir. Yangi O’zbekistonni hech kim chetdan kelib qurmaydi. Uni aynan shu muqaddas zaminda yashayotgan fidoyi insonlar – dehqon, ishchi,

tadbirkor, olim, o’qituvchi, shifokor, harbiy xizmatchi va mehnatkash xalqimiz birgalikda barpo etmoqda.

Bugungi mustaqil O’zbekiston – ulkan imkoniyatlar mamlakati. Ertangi O’zbekiston esa aynan xalqimiz birligi, mehnatsevarligi, vatanparvarligi va ezgu maqsadlarga sadoqati tufayli yanada qudratli davlatga aylanadi.

Umuman olganda, mamlakatimiz mustaqilligining 35 yilligi – bu o’tgan yo’lni sarhisob qilish, erishilgan yutuqlarni munosib baholash va kelajak taraqqiyotining yangi marralarini belgilab olish uchun muhim tarixiy palladir.

“Yagona Vatan, yagona xalq bo’lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!” degan ezgu g’oya har bir yurtdoshimizni birlashtiruvchi, Vatan ravnaqi va xalq farovonligi yo’lidagi umummilliy dasturga aylanishi shubhasiz.

Zero birdamlik bor joyda taraqqiyot, ahillik bor joyda baraka, Vatanga muhabbat bor joyda esa buyuk kelajak albatta barpo etiladi.


**Leytenant
Mansurbek JABBOROV,
“Vatanparvar”**



Mardi maydonlar

NISHONGA YETGAN

Tong hali to'liq yorishib ulgurmagan. Poligon uzra sukunat hukm surardi. Ammo bu sokinlik ortida katta kuch, mukammal reja va yuksak mas'uliyat mujassam. Birzumdan so'ng yer bag'rini titratgan ilk portlash tovushi fazoni yangratadi. Osmon sari otilgan snaryad izi go'yo bir haqiqatni eslatadi: Vatan tinchligi tasodif emas, u har kuni mashq maydonlarida to'kilgan mehnat, puxta tayyorgarlik va yuksak harbiy mahorat evaziga ta'minlanadi.



Zamonaviy jang maydoni endi faqat kuch sinovi emas, u tezkor fikrlash, aniq hisob-kitob, ilg'or texnologiyalar va bir butun mexanizmdek ishlaydigan jamoaviy hamkorlikni talab qiladi. Ana shunday sharoitda artilleriya har qachongidan ham muhim kuchga aylanmoqda. Uning qudrati esa nafaqat zamonaviy qurol-aslahada, balki uni boshqarayotgan harbiy xizmatchilarning bilim, tajriba va jangovar ruhiyatida namoyon bo'ladi.

Markaziy harbiy okrug qo'shinlari artilleriya bo'linmalari ishtirokida "Kattaqo'rg'on" poligonida tashkil etilgan navbatdagi o'quv mashg'uloti aynan shu maqsadga xizmat qilmoqda. Bu yerda har bir mashg'ulot, har bir hisob-kitob va har bir aniq zarba ortida yurt mudofaasini yanada mustahkamlash, shaxsiy tarkibning kasbiy mahoratini yuksaltirish hamda zamonaviy jangovar harakatlarga tayyorgarlikni yangi bosqichga olib chiqishdek ulkan vazifalar mujassam.

O'quv mashg'uloti bosqichma-bosqich tashkil etildi. Avvalo, har bir harakatning mustahkam poydevori bo'lgan otishgacha tayyorgarlik mashg'ulotlari o'tkazildi. Bu bosqichda harbiy xizmatchilar qurol-aslahalarni jangovar holatga keltirish, belgilangan o'q otish marraharini egallash, nishonlarni tez va aniq aniqlash hamda xavfsizlik talablariga so'zsiz amal qilish bo'yicha o'z mahoratini yanada takomillashtirdi. Zero haqiqiy jangovar muvaffaqiyat har bir harakatning puxta rejalashtirilishi va har bir amalning aniq bajarilishidan boshlanadi.

Barcha tayyorgarlik ishlari yakunlangach, mashg'ulotlarning eng mas'uliyatli – amaliy bosqichiga start berildi. Minomyotlar, artilleriya

qurollari va jangovar mashinalar ekipajlari belgilangan nishonlarga yuqori aniqlikda zarbalar yo'lladi. Bu jarayonda nafaqat o'q otish mahorati, balki bo'linmalarning o'zaro muvofiqlashgan harakati, komandirlarning tezkor qaror qabul qilishi, artilleriya hisoblari hamda uchuvchisiz uchish apparatlari operatorlari o'rtasidagi hamjihatlik ham amalda sinovdan o'tkazildi. Zamonaviy jang sharoitida aynan mana shunday uyg'unlik g'alabani muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Mashg'ulotlar kunduzgi vaqt bilan cheklanib qolmadi. Tun qorong'isi poligon hayotini to'xtata olmadi. Aksincha, cheklangan ko'rinish sharoitida bajarilgan vazifalar harbiy xizmatchilarning jangovar tayyorgarligini yanada murakkab sinovdan o'tkazdi. Yorug'lik deyarli yo'q muhitda nishonlarni aniqlash, tezkor harakatlanish,



Muallif suratga olgan



ISHONCH

qirrali tayyorgarligiga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. "1+3" formulasi asosida har bir mutaxassis o'z asosiy yo'nalishidan tashqari qo'shimcha mutaxassisliklar bo'yicha ham amaliy ko'nikmalarni egallamoqda. Bu esa har qanday vaziyatda vazifalarni qayta taqsimlash, bo'linmalarning barqaror faoliyatini ta'minlash hamda jangovar imkoniyatlarni yanada kengaytirishga xizmat qiluvchi muhim omil hisoblanadi.

– Artilleriya bo'linmalari bilan "Kattaqo'rg'on" poligonida o'tkazilayotgan o'quv yig'ini davomida harbiy xizmatchilar maxsus tayyorgarlik bo'yicha bilim va amaliy ko'nikmalarini muntazam oshirib bormoqda, – deydi bosh serjant Abrorbek Mahmudov. – Mashg'ulotlarda zamonaviy qurolli mojarolarda qo'llanilayotgan taktik usullar, jumladan daydi batareya, daydi hisob, dron va artilleriya komplekslari o'rtasidagi hamkorlik, kontrbatareya harakatlari bo'yicha amaliy mashqlar o'tkazilmoqda. Shuningdek, "1+3" formulasi asosida harbiy xizmatchilarimiz qo'shimcha mutaxassisliklar bo'yicha ham tayyorgarlikdan o'tmoqda.

Bugun "Kattaqo'rg'on" poligonida nishonni aniq topayotgan har bir snaryad va mashg'ulotlarda namoyon bo'layotgan har bir aniq harakat O'zbekiston Qurolli Kuchlarida jangovar tayyorgarlik uzluksiz takomillashib borayotganining amaliy ifodasidir. Chunki yurt osoyishtaligi avvalo poligonlarda shakllanadi, harbiy mahorat esa tinch kunlardagi mashqlarda toblanadi.

Poligon shunchaki o'q otiladigan maydon emas, bu yerda iroda toblanadi, bilim sinovdan o'tadi, jamoaviy hamjihatlik mustahkamlanadi va g'alabaga ishonch shakllanadi. Mashg'ulotlar davomida egallangan har bir ko'nikma, takomillashtirilgan har bir taktik usul va aniq bajarilgan har bir topshiriq ertangi kunning murakkab sinovlariga puxta tayyorgarlik demakdir. Markaziy harbiy okrug artilleriya birlashmalarining "Kattaqo'rg'on" poligonidagi o'quv yig'ini ham ana shunday ezgu maqsadga xizmat qildi. Zamonaviy jangovar tajribalarni chuqur o'rganish, yangi texnologiyalarni amaliyot bilan uyg'unlashtirish va har bir harbiy xizmatchining kasbiy mahoratini yuksaltirish orqali armiyamizning jangovar salohiyati yana bir pog'onaga ko'tarildi. Zero yurt tinchligi va xalq osoyishtaligi bir kunda ta'minlanmaydi. U har kuni mashg'ulot maydonlarida to'kilgan peshona teri, yuksak intizom, mustahkam bilim va Vatan oldidagi mas'uliyat tuyg'usi bilan yaratiladi. Shu ma'noda poligondagi har bir zarb – bu shunchaki snaryad ovozi emas, balki mamlakat xavfsizligi yo'lidagi ishonch, matonat va jangovar shaylikning yangrashi hisoblanadi.

Ro'ziqul OCHILOV,
"Vatanparvar"



belgilangan
vazifalarni qisqa vaqt
ichida va aniq bajarish
shaxsiy tarkibdan yuksak kasbiy
mahorat talab etdi.

O'quv mashg'ulotining yana bir muhim jihati shundaki, unda zamonaviy qurolli mojarolar tajribasidan kelib chiqqan holda yangi taktik yondashuvlar ham amalda sinovdan o'tkazilmoqda. Xususan, daydi batareya va daydi hisob usullari, artilleriya hamda dronlar o'rtasidagi hamkorlik, kontrbatareya kurashiga oid taktik harakatlar, tarmoq asosida boshqaruv elementlari bo'yicha amaliy mashg'ulotlar tashkil etildi. Bu esa harbiy xizmatchilarning mavjud bilimlarini mustahkamlash hamda ularni zamonaviy jang maydonining yangi talablariga mos ravishda shakllantirishga xizmat qilmoqda. Dastur davomida harbiy xizmatchilarning ko'p



XXI ASR ARMIYASIDA MA'NAVIY SADOQAT VA PROFESSIONALIZM UYG'UNLIGI

Bugungi kunda jahonning siyosiy xaritasi shunchaki geografik chegaralarning o'zgarishi bilan emas, balki inson ongi, tafakkuri va qalbi uchun kechayotgan keskin kurashlar bilan tavsiflanmoqda. XXI asr harbiy san'ati va xavfsizlik konsepsiyasi an'anaviy qarashlardan butunlay farq qiluvchi yangi voqelikni taqdim etdi. Endilikda zamonaviy to'qnashuvlar faqat uzoq front chiziqlarida, harbiy poligonlarda yoki strategik obyektlar atrofida sodir bo'layotgani yo'q. Eng xavfli jang maydoni har bir insonning, shu jumladan Vatan himoyachisining ham kundalik hayotiga kirib kelgan smarffon va kompyuter ekranlariga ko'chib ulgurdi.

Gibrid urushlar davrida armiyaning kuchi nafaqat uning qurol-aslahasi va moddiy-texnik bazasi, balki shaxsiy tarkibning ma'naviy sadoqati va yuksak professionalizmi uyg'unligi bilan o'lchanmoqda. Chunki qurol qanchalik zamonaviy bo'lmasin, uni boshqaradigan insonning ongi va ruhiyati axborot xurujlari oldida zaif bo'lsa, kutilgan g'alabaga erishib bo'lmaydi.

Gibrid urush va "sokin" xavfga qarshi tafakkur zarbasi. "Sokin" halokat strategiyasiga asoslangan gibrid urushlarda an'anaviy qurollarning gumburlashi ikkinchi planga tushib, uning o'rmini axborotning "pinhona zarbalari" egallamoqda. Bu urushda dushman askar sifatida emas, balki puxta rejalashtirilgan yolg'on xabarlar, manipulyativ materiallar va feyk axborotlar shaklida hujum qiladi. Ularning asosiy nishoni – xalqning va ayniqsa harbiylarning o'z davlatiga, milliy armiyasiga, huquq-tartibot tizimiga hamda ertangi kunga bo'lgan ishonchini asta-sekin yemirishdir.

Bunday sharoitda harbiy xizmatchining professionalizmi faqat jangovar taktikani mukammal bilishida emas, balki axborot maydonidagi g'arazli oqimlarni, soxta tahlillar va jamiyatni ichidan bo'lishga qaratilgan manipulyatsiyalarni o'z vaqtida payqay olishida namoyon bo'ladi. Yaqin o'tmishdagi tarix saboqlari shuni ko'rsatadiki, ayrim mintaqalardagi inqirozlar va ichki nizolar dastlab qurol ishlatmasdan, balki yolg'on axborot bilan zaharlangan onglar orqali boshlangan. Shuning uchun ham XXI asr askari va ofitseri har qanday xabarni darhol qabul qilmasdan, uning ortidagi geosiyosiy manfaatlarni tahlil qila oladigan media savodxonlikka va tanqidiy fikrlash qobiliyatiga ega bo'lishi shart.

Ma'naviy sadoqat – eng mustahkam mafkuraviy qalqon. Davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, Vatan himoyasi – bu nafaqat tikanli simlar bilan o'ralgan sarhadlarni qo'riqlash, balki millatning ma'naviy butunligi, mafkuraviy barqarorligi va axborot sarhadlarini har qanday begona g'oyalar, yolg'on targ'ibot va zararli ta'sirlardan himoya qilish demakdir.

Harbiy xizmatchining qalbidagi ma'naviy sadoqat shunchaki balandparvoz gap emas, balki eng

og'ir vaziyatlarda uning irodasini bukmasdan ushlab turuvchi ichki kuchdir. Professionalizm harbiyni texnika va qurolni mukammal boshqarishga o'rgatsa, ma'naviy sadoqat ushbu qurolning kimga va nimaga qaratilganini, ortda turgan Vatan tuprog'ining muqaddasligini anglatadi. Axborot xurujlari, eng avvalo, insonning qadriyatlarini nishonga oladi. Milliy iftixor, harbiy-vatanparvarlik va tarixdan olingan saboqlar mustahkam bo'lmagan jamoada ruhiy tushkunlik va ishonchsizlik tez ildiz otadi. Shu bois tafakkur g'alabasi – askar va ofitser ongida g'ayriinsoniy mafkuralarga qarshi shakllantirilgan kuchli immunitet natijasidir.

Komandir – jamoaning haqiqat mezoni. Gibrid urush sharoitida rahbar va komandirlar omili mutlaqo yangi ma'no kasb etmoqda. Bugungi rahbar nafaqat boshqaruvchi va buyruq beruvchi, balki jamoa uchun haqiqat mezoni, ma'naviy tayanch va axborot filtri bo'lishi shart.

Tasavvur qiling, biror harbiy qism yoki tashkilot ichida "tizimda katta qisqartirish bo'larmish", "maoshlar kamayarmish" degan tasdiqlanmagan axborot yoki uydirma tarqaldi. Agar rahbariyat bunga e'tiborsiz qarasa, jimjitlikni saqlasa, jamoada ishonchsizlik va ruhiy tushkunlik

kuchayadi. Vaholanki, komandirning o'z vaqtida bergan aniq, shaffof va asosli tushuntirishi har qanday axborot xavfining oldini oladi. Bugungi davr rahbaridan nafaqat jangovar shaylikni, balki axborot maydonida sodir bo'layotgan geosiyosiy jarayonlarni chuqur tahlil qila olish savodxonligini talab qilmoqda.

Komandirlik tarkibining professionalizmi jamoani faqat jangovar shaylikda ushlabda emas, balki ularning ruhiy-ma'naviy holatidan doimo xabardor bo'lishida, har qanday yot g'oya va manipulyatsiyaga qarshi vaqtida aniq tushuntirish va ma'rifiy zarba bera olishida ko'rinadi.

Hushyorlik va birlik – kelajak armiyasining poydevori. Tinchlik – bu shunchaki urushning yo'qligi emas. Tinchlik har qanday tahdidga, jumladan axborot makonidagi g'arazli harakatlarga qarshi ham doimiy tayyorgarlik holatidir. Bugungi axborot maydonidagi g'alaba esa qurol kuchi bilan emas, balki tafakkur, yuksak bilim, hushyorlik va sadoqat bilan qo'lga kiritiladi.

Tafakkur sarhadlaridagi qasamyod. XXI asr armiyasida professionalizm va ma'naviy sadoqat bir-birini mutlaq inkor etmaydigan, aksincha, bir-biri bilan uzviy

bog'langan, bir-birini to'ldiruvchi va hayotbaxsh quvvat beruvchi egizak tushunchalardir. Bugun quroldan mukammal otish, texnikani boshqarish – bu shunchaki texnik mahorat xolos. Agar o'sha mahorat ortida yuksak ma'naviyat, zarracha tebranmas e'tiqod turmasa, eng zamonaviy texnika ham shunchaki jonsiz temirga aylanadi. Haqiqiy professionalizm – bu shunchaki harbiy nizomlarni yod bilish emas, balki o'z xalqi va Vatani oldidagi mas'uliyatni qalb amriga aylantira olish san'atidir. Sadoqat esa harbiy kiyim kiygan har bir shaxsning o'z vijdoniga bergan eng oliy hisobotidir.

Davlatimiz tomonidan mudofaa tizimini tubdan yangilash, qo'shinlarning jangovar shayligini oshirish va raqamli xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarga sadoqat – shunchaki rasmiy majburiyat emas. Bu millat kelajagi uchun qurilayotgan buyuk kelajak imoratiga qo'yilgan poydevordir. Bugun harbiy qasamyodga sodiqlik tushunchasi faqatgina front chizig'ida qahramonlik ko'rsatish bilan cheklanmaydi. U har bir askar va ofitserning ijtimoiy tarmoqlardagi pinhona axborot xurujlariga qarshi hushyor turishida, har qanday uydirma va feyk xabarlariga tafakkur qalqoni bilan javob bera olishida sinaladi. Har bir komandirning, har bir mutaxassisning va har bir oddiy askarning o'z burchiga vijdonan yondashuvi bugungi dunyoni larzaga solayotgan har qanday gibrid urushga, mafkuraviy viruslarga qarshi eng qudratli va yengilmas qalqon bo'lib xizmat qiladi.

Zero chuqurroq o'ylab ko'raylik: Vatan chegaralari qayerdan boshlanadi? Faqatgina xaritalarda chizilgan, tikanli simlar bilan o'ralgan sarhadlardandir? Yo'q! Haqiqiy Vatan himoyasi, eng avvalo, har birimizning vijdonimiz, milliy g'ururimiz, burchga bo'lgan mas'uliyatimiz va soniya sayin o'zgarib turgan axborot ummonidagi hushyorligimiz chegarasidan boshlanadi. Ongi va qalbi daxlsiz bo'lgan askarni hech qanday yashirin gibrid quroli bilan mag'lub etib bo'lmaydi. Zero eng buyuk g'alaba qurol kuchi bilan emas, balki yuksak tafakkur, ma'naviy sadoqat sari iroda bilan qo'lga kiritilgan g'alabadir.

Sherzod ALIMOV,
Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti dotsenti



Surat sun'iy intellekt yordamida tayyorlandi

Islohotlar amalda

GENDER TENGLIK

ustuvor vazifa



So'nggi yillarda mamlakatimizda gender tenglikni ta'minlash borasida izchil islohotlar amalga oshirilib, bu boradagi yondashuvlar yangi bosqichga ko'tarildi. Bu yo'nalishda qabul qilinayotgan qonunlar, amalga oshirilayotgan islohotlar va eng muhimi, jamiyatda shakllanayotgan yangi qarashlar gender masalasiga mutlaqo yangi yondashuvni yuzaga keltirmoqda. Bu jarayon barcha sohalar qatorida harbiy tizimda ham o'z aksini topayotgani e'tiborga molik. Eng muhimi, mazkur yo'nalishda amaliy ishlar tizimli ravishda tashkil etilmoqda. Mudofaa vazirligi Markaziy harbiy klinik hospitalida "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar" mavzusida o'tkazilgan amaliy seminar fikrimizning yaqqol isbotidir.

Mudofaa vazirligi hamda O'zbekiston davlat muassasalari va jamoat xizmati xodimlari kasaba uyushmasi Respublika kengashi hamkorligida o'tkazilgan mazkur tadbirda Mudofaa vazirligi tasarrufidagi harbiy qism hamda muassasalar Xotin-qizlar va gender tenglik bo'yicha Maslahat kengashi va "Harbiy qism yettiligi" a'zolari, kadr organi xodimlari, shuningdek Kasaba uyushmasi qo'mitasi vakillari ishtirok etdi.

Tadbir avvalida Mudofaa vazirligi Kadrlar bosh boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari polkovnik Otabek Shomahmudov so'zga chiqib, gender tenglikni ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar va ularning natijalari yuzasidan atroflicha ma'lumotlar taqdim qildi. Xususan, O'zbekiston Kasaba uyushmalari federatsiyasi tomonidan tasdiqlangan rejaga muvofiq, joriy yil may-iyun oylarida Mudofaa vazirligi qo'shinlarida mehnat faoliyatini olib borayotgan Qurolli Kuchlar ishchi va xizmatchisi bo'lgan xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar yuzasidan genderni oid audit o'tkazilib, 62 ta harbiy qism va muassasada holat o'rganilganini qayd etdi. Tahlillar natijasida xodimlar o'rtasida teng huquq va imkoniyatlar ta'minlanayotgani,

mehnatga haq to'lashda jinsga qarab farq qilinmayotgani, shuningdek ayollarning rahbarlik lavozimlaridagi ulushi ortib borayotgani, joylarda xodimlar orasida ish yuklamasining teng taqsimlanishini ta'minlash maqsadida "Harbiy qism yettiligi" tarkibi bir vaqtning o'zida boshqaruv organlari hamda

harbiy qismlarda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlarni ta'minlash bo'yicha maslahat kengashi tarkibi etib belgilab berilgani ta'kidlandi. So'rovnoma va suhbatlar orqali xodimlarning fikrlari o'rganilib, umumiy holat ijobiy baholangani e'tirof etildi. Yakunda esa gender tenglikni yanada mustahkamlash,

bu borada tizimli ishlash va aniq vazifalarni belgilash zarurligiga urg'u berildi.

Shuningdek, tadbir doirasida ishtirokchilarga gender tenglikni ta'minlashda davlat siyosati, amaldagi qonunchilik va uning ijrosini kuchaytirishga qaratilgan mexanizmlar haqida ham atroflicha ma'lumotlar berildi. Jumladan, O'zbekiston Kasaba uyushmalari federatsiyasi apparati mehnat texnik inspektori Muqaddas Muyitdinova davlat idoralarida genderni oid auditning asosiy jihatlari, uning samaradorligi va amaliy ahamiyati xususida ma'ruza qildi. Oila va gender ilmiy tadqiqot instituti bo'lim boshlig'i Xurshida Saydivaliyeva esa Yangi O'zbekistonda farovon



oilani shakllantirish, xotin-qizlarga yaratilayotgan imkoniyatlar va ularni qo'llab-quvvatlash borasidagi ishlarga to'xtalib o'tdi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar qo'mitasi bo'lim boshlig'i O'g'iloy Urazovanning gender masalalari, jamiyatda tenglikni ta'minlash va bu boradagi dolzarb vazifalar yuzasidan qilgan ma'ruzasi ham ishtirokchilar uchun manfaatli bo'ldi.

Seminar yakunida ishtirokchilar tomonidan gender tenglikni yanada mustahkamlash, bu boradagi ishlarni tizimli davom ettirish yuzasidan taklif va tavsiyalar bildirildi.

**Podpolkovnik
Gulnora XODJAMURATOVA**

Aybin – 2026

O'ZBEK YOSHLARINING

navbatdagi muvaffaqiyati



Qozog'iston Respublikasining Shuchinsk shahrida joylashgan "Amandiq" poligonida XII xalqaro harbiy-vatanparvarlik yig'ini – "Aybin – 2026" musobaqasi bo'lib o'tdi.

Joriy yilgi musobaqada O'zbekiston, Qirg'iziston, Ozarbayjon, Rossiya davlatlari jamoalari hamda mezbon Qozog'iston Respublikasidan oltmishga yaqin jamoa o'zaro kuch sinashdi. Bir hafta davom etgan bellashuvlar harbiy-amaliy va intellektual yo'nalishlarda tashkil etilgani bilan ahamiyatli bo'ldi. Unda ishtirokchilarning nafaqat jismoniy tayyorgarligi, balki tezkor fikrlashi,

qat'iyati va jamoaviy hamjihatligi ham sinovdan o'tkazildi.

Musobaqada O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi huzuridagi "Vatan tayanchi" harakati a'zolaridan tashkil topgan jamoa ham munosib ishtirok etib, bellashuvlarda yuksak mahorat va puxta tayyorgarliklarini namoyish etib, xalqaro maydonda Vatanimiz sharafiga munosib himoya qildi. Natijalar esa mehnat va intilishlarning yorqin isbotiga

aylandi. Jamoamiz 9 ta yo'nalish bo'yicha o'tkazilgan bellashuvlarda 1 ta oltin, 2 ta kumush medal hamda 4 ta g'oliblik kubogini qo'lga kiritdi va umumjamoa hisobida 2-o'rinni egalladi.

Yakuniy natijalarga ko'ra, 1-o'rin mezbon Qozog'iston Respublikasi jamoasiga nasib etgan bo'lsa, sharaflari 2-o'rinni O'zbekiston jamoasi



ishonch bilan egalladi. 3-o'rin esa Ozarbayjon, Rossiya va Qirg'iziston jamoalariga nasib qildi.

Musobaqaning tantanali yopilish marosimi ham unutilmas taassurotlarga boy bo'ldi. Unda Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Qasim-Jomart Toqayev ishtirok etib, "Aybin" yig'inining ahamiyatiga alohida to'xtaldi. Ushbu musobaqa yoshlar o'rtasidagi do'stlik va hamkorlikni mustahkamlash, ularning jismoniy va ma'naviy salohiyatini oshirish, vatanparvarlik tuyg'ularini yuksaltirishda muhim o'rin tutishini ta'kidladi. Shuningdek, davlat rahbari

g'olib va sovrindor jamoalarni samimiy tabriklab, ularga yangi yutuqlar tiladi.

Bir so'z bilan aytganda, "Aybin – 2026" nafaqat musobaqa, balki yosh avlod qalbida Vatanga muhabbat, sadoqat va faxr tuyg'ularini mustahkamlovchi ulkan maktab bo'ldi. Unda munosib ishtirok etgan O'zbekiston yoshlari esa kelajakda ham yurtimiz bayrog'ini xalqaro maydonlarda baland ko'tarishga qodir ekanini yana bir bor amalda isbotladi.

**Podpolkovnik
Gulnora XODJAMURATOVA**



Armiya va yoshlar

NISH NGA TEKKAN O'Q, QALBGA SINGGAN SADOQAT

Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi faqat qurol ishlatishni o'rgatish emas. Bu, avvalo, Vatanga muhabbat, xalq manfaatlariga sadoqat, ota-onaga hurmat, milliy qadriyatlarga ehtirom va tinchlikning qadriga yetishni anglatadi. Ana shunday fazilatlarni shakllantirishda "Qo'mondon kubogi" kabi tadbirlarning o'zni beqiyos.

Tadbirning eng hayajonli qismi qo'mondon kubogi uchun pnevmatik miltiqdan o'q otish musobaqasi bo'ldi. Bellashuv davomida ishtirokchilar nafaqat merganlik mahoratini, balki diqqat-e'tibor, sabr-toqat, tezkor fikrlash va ruhiy barqarorlik kabi fazilatlarini ham namoyon etdi. Har bir nishonga yo'llangan o'q yoshlarning g'alabaga bo'lgan ishonchi, qat'iyati va intilishining ifodasi bo'ldi.

Ochiq eshiklar kuni doirasida yoshlar harbiy qismda yaratilgan zamonaviy sharoitlar bilan yaqindan tanishish imkoniyatiga ega bo'ldi. Harbiy xizmatchilarning xizmat faoliyati, yashash sharoitlari, dam olish maskanlari, sport inshootlari, ma'naviy-ma'rifiy binolar hamda jangovar tayyorgarlik jarayonlari ularda katta taassurot qoldirdi. Zamonaviy texnika va

tarixiy eksponatlar, fotosuratlar va arxiv hujjatlari orqali harbiy qismning bosib o'tgan shonli yo'li, erishilgan yutuqlari hamda Vatan himoyasi yo'lida fidokorona xizmat qilgan harbiylarning jasorati haqida batafsil ma'lumot oldi. Bu esa yoshlarning qalbida milliy armiyamizga bo'lgan hurmat va faxr tuyg'ularini yanada mustahkamladi.

Tadbirning yana bir muhim jihati yoshlar bilan tashkil etilgan ochiq muloqot bo'ldi. Unda oliy harbiy ta'lim muassasalariga o'qishga kirish tartibi, qabul jarayonlari, kursantlar uchun yaratilgan imkoniyatlar,



Samarqand garnizonida tashkil etilgan tadbir yoshlarda unutilmas taassurot qoldirdi. Ular nafaqat harbiy hayot bilan yaqindan tanishdi, balki o'z oldilariga ulkan maqsadlar qo'yish, Vatan ravnaqi yo'lida sidqidildan xizmat qilish zarurligini yanada chuqurroq angladi.

Yangi O'zbekistonni bunyod etishda bilimli, vatanparvar va fidoyi yoshlar eng katta tayanch hisoblanadi. Ularni ana shunday ruhda tarbiyalash esa har birimizning muqaddas burchimizdir. Qo'mondon kubogi ana shu ezgu maqsad sari tashlangan navbatdagi muhim qadamlardan biri bo'ldi.

Tadbir yoshlarni harbiy xizmatga qiziqitirish, ularda Vatanga sadoqat, yuksak mas'uliyat va fuqarolik burchini his etish tuyg'ularini mustahkamlashga xizmat qildi. Unda Samarqand viloyatining shahar va tumanlaridan tashrif buyurgan o'quvchi-yoshlar, ta'lim muassasalari vakillari hamda harbiy xizmatchilar ishtirok etdi.



Musobaqa qizg'in va murosasiz bahslar ostida o'tdi. Ishtirokchilar o'rtasidagi sog'lom raqobat ularning harbiy-amaliy ko'nikmalarini yanada mustahkamlashga xizmat qildi. Yakunda yuqori natijalarni qayd etgan yoshlar diplom hamda esdalik sovg'alar bilan taqdirlandi.



qurollar, mashg'ulot maydonlari, sport majmualari hamda o'quv xonalari harbiy sohada amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarning yaqqol namunasidir.

Tadbir davomida ishtirokchilar harbiy qism tarix muzeyiga tashrif buyurdi. Muzeydagi

zamonaviy ta'lim tizimi hamda istiqbolli harbiy mutaxassisliklar haqida atroflicha ma'lumot berildi.

Bugungi kunda mamlakatimizda yoshlar siyosatiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Chunki Vatan tinchligi va xalq osoyishtaligini ta'minlaydigan asosiy kuch – bu o'z burchiga sodiq, bilimli va fidoyi yosh avlod.

Qo'mondon kubogi singari tadbirlar aynan ana shu ezgu maqsadga xizmat qiladi. Bunday uchrashuvlar orqali yoshlar harbiy hayot bilan yaqindan tanishadi, o'z imkoniyatlarini sinovdan o'tkazadi va eng muhimi, Vatan oldidagi mas'uliyatini chuqurroq his qiladi.

Parvina ABDUHAMIDOVA,
Markaziy harbiy okrug
matbuot xizmati
bosh mutaxassisi



Kelajagimiz bunyodkorlari

AXBOROT XURUJLARINING YOSH AVLOD ONGIGA TA'SIRI

Bugungi kunda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida dunyoda axborot almashinuvi mislsiz darajaga yetdi. Internet tarmog'i, ijtimoiy tarmoqlar va raqamli platformalar inson hayotining barcha jabhalariga chuqur kirib bordi. Natijada axborot nafaqat ma'lumot yetkazish vositasi, balki jamiyat ongiga ta'sir ko'rsatishning muhim quroliga ham aylandi.

Globalashuv sharoitida mafkuraviy kurashning shakl va usullari o'zgarib, an'anaviy qurollar o'rnini axborot vositalari egallamoqda. Bugungi kunda ayrim kuchlar o'z g'arazli maqsadlarini amalga oshirish uchun internet tarmoqlari, ijtimoiy media platformalar va turli axborot resurslaridan keng foydalanmoqda. Bu esa axborot xurujlarining ko'lami va ta'sir doirasini yanada kengaytirmoqda.

Axborot xuruji deganda muayyan shaxs, guruh yoki tashkilotlar tomonidan aholi, ayniqsa yoshlar ongi va dunyoqarashiga ta'sir o'tkazish, ularning fikrini o'zgartirish hamda ma'lum maqsadlarga yo'naltirish uchun amalga oshiriladigan tizimli axborot ta'siri tushuniladi. Bunday ta'sirlar ko'pincha yolg'on yoki buzib ko'rsatilgan ma'lumotlar, manipulyativ materiallar, yolg'on xabarlar va turli mafkuraviy g'oyalar orqali amalga oshiriladi.

Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, axborot xurujlarining asosiy nishoni ongi va dunyoqarashi shakllanish bosqichida bo'lgan yoshlar hisoblanadi. Chunki yoshlar ijtimoiy tarmoqlarning eng faol foydalanuvchilari bo'lib, axborotni

tez qabul qiladi va tarqatadi. Shu bois ular turli axborot ta'sirlariga nisbatan sezgir qatlam sifatida baholanadi.

Ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqatilayotgan ekstremistik g'oyalar, radikal qarashlar, milliy qadriyatlarga zid bo'lgan axborotlar hamda yoshlar ongida shubha uyg'otishga qaratilgan materiallar jiddiy xavf tug'dirmoqda. Bunday axborotlar milliy o'zlikni anglash hissining susayishiga, ma'naviy qadriyatlarga befarqlikning kuchayishiga va yoshlarning turli yot g'oyalar ta'siriga tushib qolishiga sabab bo'lishi mumkin.

Shu bilan birga, internet tarmog'ida kiberterrorizm, axborot manipulyatsiyasi va psixologik ta'sir texnologiyalaridan foydalanish holatlari ham kuzatilmoqda. Ayrim buzg'unchi kuchlar axborot vositalari orqali jamiyatda beqarorlik kayfiyatini shakllantirish, aholi o'rtasida ishonchsizlik muhitini yaratish va yoshlarni o'z g'arazli maqsadlari yo'lida safarbar etishga urinmoqda.


Bunday sharoitda yoshlarda axborot xavfsizligi madaniyatini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Avvalo, ularni

axborotlarni tahlil qilish, manbalarning ishonchligini baholash va har qanday ma'lumotga tanqidiy yondashishga o'rgatish talab etiladi. Shuningdek, milliy qadriyatlar, Vatanga sadoqat, fuqarolik ma'suliyati va ma'naviy tarbiya masalalariga alohida e'tibor qaratish zarur.

Harbiy jamoalarda ham shaxsiy tarkibning axborot madaniyatini oshirish, ularda mafkuraviy immunitetni shakllantirish, internet tarmog'idan xavfsiz foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirish hamda yot g'oyalarga qarshi ogohlikni kuchaytirish dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Bu borada tarbiyaviy tadbirlar, ma'naviy-ma'rifiy mashg'ulotlar va axborot xavfsizligiga bag'ishlangan davra suhbatlarining ahamiyati kattadir.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, axborot xurujlari zamonaviy dunyoda milliy xavfsizlikka ta'sir ko'rsatuvchi muhim omillardan biriga aylanmoqda. Bugungi yoshlarimiz hamma sohaga qiziquvchan, yangiliklarni birzumda o'zlashtirib oladigan, har qanday axborotni tez qabul qiladigan xislatlarga egaligini hisobga olib, ularni turli manbalardan, yot maqsadlarni ko'zlab tarqalayotgan axborotlardan munosib himoyalay olishimiz darkor. Yoshlarimiz ongini egallashga qaratilgan har qanday xatti-harakatlarga, milliy manfaatlarimizga raxna solishga, ma'naviyatimizga tajovuz qilishga, umrimiz mazmuni bo'lgan tarixiy xotiramizni buzishga urinayotgan g'arazli kuchlarga qarshi doim ogoh turishimiz lozim. Ana shundagina bizni hech kim, hech narsa o'z tanlagan yo'limizdan ortga qaytara olmaydi va biz ko'zlagan ulug'vor maqsadlarimizga, albatta yetamiz.

**Podpolkovnik
Otabek SHANAZAROV**



Surat sun'iy intellekt yordamida tayyorlandi

30-iyun – yoshlar kuni

YOSHLAR — ISTIQBOLLI KELAJAK POYDEVORI

Mamlakatimiz Prezidenti joriy yilning 24-fevral kuni “Ko'ksaroy” qarorgohida yoshlarimiz bilan bo'lib o'tgan muloqotda, “Yurtimizdagi 22 milliondan ziyod yoshlarimiz timsolida biz juda katta iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy kuchni ko'ramiz”, degandi.

Yangi O'zbekiston yoshlarining kasbiy salohiyati, professional mahorati, siyosiy-ma'naviy dunyoqarashi keng bo'lgan kelajak avlodi yurtimiz taqdiri va istiqbolining mustahkam poydevoridir. Bugun viloyatimiz yoshlari ham turli sohalarda Vatanga sadoqat bilan xizmat qilmoqda. Yoshlar kuni munosabati bilan ana shunday samarali xizmat qilayotgan yoshlarni suhbatga chorlab, faoliyatlaridagi muvaffaqiyatlari haqida fikr almashdik.



– Yoshlik yillarimdan oq jurnalistika hamda harbiy sohaga qiziqishim yuqori bo'lgan. Birinchi ustozim onajonim hisoblanadi, – deydi Navoiy viloyati IIB boshlig'ining matbuot kotibi, axborot siyosati masalalari bo'yicha maslahatchisi, axborot xizmati boshlig'i katta leytenant Fayozjon Qosimov. – Qiziltepa tumanidagi 24-sonli umumta'lim maktabi va Yengil sanoat kasb-hunar kollejida o'qidim. Kollejni imtiyozli diplom bilan bitirib, Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn institutining san'atshunoslik jurnalistikasi yo'nalishida tahsil oldim. Ustozlarimning menga bergan bilim va ko'nikmalari hamda tavsiyalari faoliyatimdagi ijobiy natijalarga sabab bo'ldi.

Ma'lum muddat tumanimizning “Qiziltepa tongi” gazetasida jamoatchi muxbir sifatida faoliyat yuritdim. She'r va maqolalarim tuman, viloyat va respublika gazetalarda chop etildi. Yoshlikdagi orzularim sabab 2021-yilda IIO safiga qabul qilinib, dastlabki xizmat faoliyatim viloyat IIB YHXB matbuot guruhi safida kichik inspektor, so'ngra ushbu boshqarmaning matbuot guruhi katta inspektori vazifasida xizmat qildim. Bugun viloyat IIB axborot xizmati boshlig'i lavozimida o'z faoliyatimni olib bormoqdaman.

Xizmat faoliyatimdagi yutuqlarim va munosib xizmatlarim uchun “Yoshlar fidoyisi” ko'krak nishoni bilan mukofotlandim. Kelajakdagi orzularim – xizmat faoliyatimning yetuk mutaxassisi bo'lib, ilmiy darajalarni egallab, tizim

rivojiga munosib hissamni qo'shish, xalqimiz tinchligi va osoyishtaligini ta'minlashda astoydil xizmat qilish.



– Yurtimiz tinchligi – barcha sohalarning rivoji, aholining turmush farovonligi, osoyishta hayotni qadrlash kabi ulug' fazilatlar mas'uliyatli kasb egalarining sharaflari burchi hisoblanadi, – deydi Navbahor tumani IIB tashkiliy bo'linma boshlig'i mayor Yulduzxon Gaffarova. – Bugun har bir yosh bilimga chanqoq, g'ayrat-shijoatli ekani bilan ajralib turadi. Yoshlik – insonni harakatga undovchi, munosib kasbni tanlashda keng imkoniyatlar davri hisoblanadi.

Maktabni muvaffaqiyatli tamomlab, orzularim sari yo'l oldim. 2014-yilda IIV akademiyasiga o'qishga qabul qilindim. Xizmat faoliyatimni Navbahor tumani IIB huzuridagi tergov bo'linmasida boshladim. Faoliyatim davomida tizimning turli yo'nalishlarida xizmat qildim, o'z kasbimga bo'lgan mas'uliyatim, adolatli xizmat olib borishim rahbariyatimiz tomonidan munosib baholandi. Joriy yil faoliyatimda katta yangiliklar bo'ldi. Navbahor tumani IIB tashkiliy bo'linma boshlig'i vazifasida ish faoliyatimni davom ettirib kelmoqdaman. Bu zimnamga yanada katta mas'uliyat baxsh etib, vazifalarimni sidqidildan, adolatli bajarib, samarali xizmat olib borishga undamoqda.



– Maktabda o'qib yurgan kezlrimdan harbiy sohaga bo'lgan qiziqishim yuqori bo'lgan, – deydi Navoiy viloyati FVB axborot xizmati rahbari Olimjon Mavlonov. – Bizning oilamizda harbiy xizmatchilar yo'q. Maktabni imtiyozli shahodatnoma bilan bitirdim. Navoiy informatika va elektronika sanoati kasb-hunar kollejida ta'lim olib, 2017-yilda uni ham imtiyozli diplom bilan tamomladim.

2018-yilda IIV Yong'in xavfsizligi institutiga o'qishga qabul qilindim. O'qishdan keyin “NKMK” DKning YOXTTEM Favqulodda vaziyatlar

profilaktikasi inspektori lavozimida mehnat qilib, korxona ishchi-xodimlari ishtirokida favqulodda vaziyatlar hamda yong'in xavfsizligi qoidalariga rioya qilish bo'yicha turli yo'nalishdagi tekshiruv va profilaktik tadbirlarida faol ishtirok etganman. Tizimdagi faolligim inobatga olinib, 2025-yili viloyat FVB axborot va jamoatchilik bilan aloqalar xizmati boshlig'i lavozimiga tayinlandim va mehnat faoliyatimni davom ettirib kelmoqdaman. Xizmatdan bo'sh vaqtlarimda badiiy kitoblar o'qishni yoqtiraman.



– Respublikamizning amaldagi yo'l harakati qoidalariga muvofiq, haydovchilar va piyodalar xavfsizliklarini ta'minlash maqsadida yo'llarda doim ogoh bo'lishlari shart, – deydi Navoiy viloyati IIB JXX YHXB axborot xizmati inspektori safdor Sabina Xo'jayeva. – Xizmat faoliyatimning dastlabki yillarida “Fazo” telekanali, so'ngra “Zo'rTV” telekanallarida muxbir bo'lib ishladim. Sohadagi mas'uliyatli mehnatlarim bois viloyat IIB YHXB axborot xizmati rahbarining e'tiboriga tushdim. Hozirda ushbu tizimda xizmatimni olib boryapman. Tanlagan kasbim bilan faxrlanaman. Xizmatim davomida faolligim sabab bir qator tashakkurnoma, faxriy yorliq hamda esdalik sovg'alar bilan taqdirlandim. Yutuqlarim bilan birgalikda men uchun yonimda doim yelkadosh bo'lib, xizmatimni tushungan, qo'llab-quvvatlagan insonlarim – bu ota-onam, oilam, farzandlarim borligidan mamnunman. Fursatdan foydalanib, yoshlarimizni Yoshlar kuni bilan muborakbod etaman, ularga mustahkam sog'liq, orzulariga yetishishda ulkan zafarlar tilayman.



– Bugungi kunda yoshlar uchun yaratilayotgan keng imkoniyatlardan samarali foydalanib, Vatan ravnaqi va xalq osoyishtaligi yo'lida sidqidildan xizmat

qilayotgan yoshlar safi tobora kengayib bormoqda, – deydi Navoiy viloyati IIB huzuridagi qo'riqlash xizmatining axborot xizmati boshlig'i kapitan Ramazon Kubayev. – Yoshlikdagi orzular sari ilk qadamim 2016-yilda boshlanib, Ichki ishlar vazirligining Toshkent oliy harbiy-texnika bilim yurti, hozirgi Jamoat xavfsizligi universitetiga o'qishga qabul qilindim va 2020-yilda mazkur oliygohni muvaffaqiyatli tamomladim.

Mehnat faoliyatimni Toshkent shahri Olmazor tumani qo'riqlash bo'limida sektor boshlig'i lavozimidan boshladim. Hozirda Navoiy viloyati IIB huzuridagi qo'riqlash xizmatining axborot xizmati boshlig'i lavozimida samarali faoliyat yuritib kelmoqdaman. Tizimdagi o'zgarish va yangiliklarni keng jamoatchilikka yetkazishda sohadagi shaffoflikni ta'minlash maqsadida ommaviy axborot vositalari bilan muntazam va yaqin hamkorlikda turli tadbirlar olib boryapmiz.



– Yoshlik davri har bir inson uchun berilgan ilohiy ne'matlardan biri bo'lib, kelajakda qaysi kasb egasi bo'lishi ham yoshlikdan ayon bo'ladi, – deydi Navoiy viloyati FVB “Asia Trans Gas” MCHJ WKC-3 OFVB inspektori katta leytenant Ismoil Hamroyev. – Ushbu sohaga bo'lgan qiziqishim bois yoshlik yillarimdan oq ota-onamning menga bergan tarbiyalari va orzulari sabab shu sohada o'z faoliyatimni boshladim. Tanlagan kasbim bilan faxrlanaman.

2020-yilda O'zbekiston Respublikasi FVV akademiyasiga qabul qilindim. O'qishim davomida bilimimni mustahkamlab, bir qator sport musobaqalarida faol ishtirok etdim. 2025-yilda o'qishni tamomlab, magistrlik diplomi va ofitserlik unvoni bilan xizmat faoliyatimni Navoiy viloyati FVBda boshlab, hozirgi kunga qadar aholini har qanday ko'ngilsizliklarda hayoti va salomatligiga xavf soluvchi holatlardan asrash maqsadida hamkasblarimiz bilan birgalikda, bir qator profilaktik tadbirlarni amalga oshirib kelmoqdamiz. Xizmatdan bo'sh vaqtlarimda sportning shaxmat, stol tennisi, yugurish turlari bilan shug'ullanib kelaman.

Buyuk kelajagimiz, erkin va obod Vatanimiz poydevori bo'lgan yoshlar, har tomonlama yetuk, yuksak ma'naviyatli mutaxassislar Yangi O'zbekistonning haqiqiy bunyodkorlaridir. Ularning har bir sohadagi yutug'i xalqimizning faxri, ertangi kunimizning ishonchli kafolatidir.

Dilafroz XALILOVA,
“Muqaddas burch” gazetasi
bosh muharriri



SUN'IY INTELLEKT YORDAMIDA

harbiy ta'lim samaradorligini oshirishning ahamiyati

Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida barcha sohalar qatori harbiy ta'lim tizimi ham zamonaviy texnologiyalar asosida takomillashib bormoqda. Ayniqsa, sun'iy intellekt texnologiyalarining ta'lim jarayoniga kirib kelishi o'quv faoliyatini yangi bosqichga olib chiqib, bilim berish sifati, amaliy tayyorgarlik darajasi va boshqaruv samaradorligini oshirishda muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda.

Harbiy ta'lim o'zining murakkabligi, aniqlikka asoslangani, tezkor qaror qabul qilishni talab etishi va doimiy ravishda yangilanib boruvchi xavfsizlik muhitiga moslashishni taqozo etishi bilan boshqa ta'lim yo'nalishlaridan ajralib turadi. Shu bois ushbu tizimda sun'iy intellekt imkoniyatlaridan oqilona foydalanish masalasi alohida ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Harbiy ta'lim muassasalarida kursant va tinglovchilarni tayyorlash jarayonida nafaqat nazariy bilimlarni yetkazish, balki murakkab vaziyatlarda mustaqil fikrlash, tezkor tahlil qilish, xavfni baholash va to'g'ri qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirish muhim hisoblanadi.

An'anaviy o'qitish usullari bu vazifalarni ma'lum darajada bajarishga xizmat qilsa-da, zamonaviy harbiy kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish uchun yanada moslashuvchan, tezkor va individual yondashuvlarni talab etadi. Sun'iy intellekt esa aynan shu jihatlari bilan harbiy ta'limning sifat ko'rsatkichlarini oshirish, o'quv materiallarini shaxsiylashtirish, o'zlashtirish darajasini tahlil qilish, xatolarni aniqlash va o'quv jarayonini prognozlash imkonini beradi.

Sun'iy intellekt asosidagi tizimlar yordamida virtual trenajyorlar, simulyatsion mashg'ulotlar, adaptiv o'quv platformalari, avtomatlashtirilgan nazorat va baholash vositalari yaratilib, ular orqali kursantlarning real xizmat faoliyatiga yaqin sharoitlarda tayyorgarligini kuchaytirish mumkin bo'ladi. Bu esa, o'z navbatida, nazariya va amaliyot uyg'unligini ta'minlaydi, inson omili bilan bog'liq ayrim cheklavlarni kamaytiradi va o'quv jarayonining aniqligi va samaradorligini oshiradi. Ayniqsa, katta hajmdagi axborotni qayta ishlash, tezkor vaziyatlarni modellashtirish va variantli qarorlar ishlab chiqishda sun'iy intellektning imkoniyatlari harbiy ta'lim uchun katta istiqbol ochib bermoqda.

Harbiy ta'lim tizimida sun'iy intellektni qo'llash nafaqat o'qitish sifatini oshirish, balki bo'lajak

ofitser va mutaxassislarning intellektual salohiyati, kasbiy moslashuvchanligi hamda axborot-kommunikatsion kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu nuqtayi nazardan, sun'iy intellekt yordamida harbiy ta'lim samaradorligini oshirish masalasini ilmiy jihatdan tadqiq etish muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega. Ushbu maqolaning maqsadi sun'iy intellekt texnologiyalarining harbiy ta'lim tizimidagi o'rni va ahamiyatini ochib berish, uning ta'lim samaradorligini oshirishdagi imkoniyatlarini ilmiy asoslash hamda ushbu yo'nalishdagi istiqbolli yondashuvlarni tahlil qilishdan iborat.

Sun'iy intellekt texnologiyalarining rivojlanishi harbiy ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, o'quv jarayonini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish hamda bo'lajak harbiy mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligini kuchaytirishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Zamonaviy harbiy faoliyat murakkab axborot oqimlari, tezkor vaziyat tahlili, strategik fikrlash, aniqlik va yuqori darajadagi mas'uliyatni talab qiladi. Shu sababli harbiy ta'limda nafaqat nazariy bilimlarni egallash, balki amaliy tayyorgarlik, simulyatsion o'quv mashqlari, operativ fikrlash va qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirish ustuvor vazifaga aylanmoqda. Aynan shu nuqtada sun'iy intellekt o'qitishning samaradorligini oshiruvchi, ta'lim mazmunini moslashtiruvchi va o'quvchi faoliyatini chuqur tahlil qiluvchi innovatsion vosita sifatida namoyon bo'ladi.

Harbiy ta'limda sun'iy intellektidan foydalanishning eng muhim jihatlardan biri o'quv jarayonini individuallashtirish imkoniyatidir. An'anaviy ta'lim jarayonida barcha kursantlarga bir xil mazmundagi topshiriqlar, bir xil sur'at va usulda bilim berilishi ko'p hollarda ularning individual qobiliyatlari, tayyorgarlik darajasi va qiziqishlaridagi farqlarni inobatga olishga to'liq imkon

bermaydi. Sun'iy intellekt asosidagi *adaptive* o'qitish tizimlari esa har bir kursantning bilim darajasi, xatolari, o'zlashtirish sur'ati va ehtiyojlariga qarab o'quv materialini avtomatik moslashtiradi. Natijada kursant o'ziga qulay sur'atda bilim oladi, murakkab mavzular bo'yicha qo'shimcha tavsiyalar oladi, sust o'zlashtirilgan bo'limlar qayta mustahkamlanadi. Bu esa umumiy ta'lim samaradorligini oshirish bilan birga individual tayyorgarlik sifatini ham yuksaltiradi.

Sun'iy intellektning harbiy ta'limdagi yana bir muhim afzalligi virtual trenajyorlar va simulyatsion platformalar orqali amaliy tayyorgarlikni takomillashtirishidir. Harbiy ta'limda nazariy bilimlar qanchalik muhim bo'lmasin, amaliy mashg'ulotlar, real vaziyatlarni modellashtirish va xavfli sharoitlarda harakat qilishga tayyorgarlik undan-da muhimroq hisoblanadi. Sun'iy intellekt yordamida yaratilgan simulyatsion muhitlar kursantlarga jangovar vaziyatlar, favqulodda holatlar, boshqaruv jarayonlari, taktik topshiriqlar va murakkab strategik qarorlar bilan bog'liq mashqlarni xavfsiz va nazorat qilinadigan muhitda bajarish imkonini beradi. Bunday platformalar real voqeikka yaqin ssenariylarni yaratishi, kursantning harakatiga mos ravishda vaziyatni o'zgartirishi va natijalarni tahlil qilishi bilan ahamiyatlidir. Bu esa kursantlarda tezkor fikrlash, moslashuvchanlik, mas'uliyat va amaliy tajriba shakllanishiga xizmat qiladi.

Sun'iy intellekt ta'lim jarayonida nazorat va baholash tizimini takomillashtirishda ham alohida o'rin tutadi. Harbiy ta'lim muassasalarida baholash ko'nikmalari, vaziyatga mos munosabati, qaror qabul qilish tezligi va mantiqiy asoslangan fikrlash darajasini ham qamrab olishi lozim. Sun'iy intellekt asosidagi monitoring tizimlari kursant faoliyatini doimiy kuzatish, topshiriqlar bajarilishidagi xatolarni aniqlash, o'quv natijalarini tahlil qilish va rivojlanish

dinamikasini prognozlash imkonini beradi. Bunday tizimlar baholashda subyektivlikni kamaytirib, aniqlik va xolislikni oshiradi. Natijada o'qituvchi kursantning kuchli va sust tomonlarini aniq ko'ra oladi, individual korreksion ishlarni rejalashtiradi va ta'lim mazmunini qayta takomillashtirish uchun zarur ma'lumotlarga ega bo'ladi.

Sun'iy intellekt yordamida katta hajmdagi ma'lumotlarni tezkor qayta ishlash va tahlil qilish imkoniyati ham harbiy ta'lim samaradorligini oshiruvchi muhim omillardan biridir. Bugungi harbiy faoliyat axborot bilan ishlash, tahdidlarni oldindan anglash, turli manbalardan kelayotgan ma'lumotlarni taqqoslash va asosli xulosa chiqarishni talab etadi. Shu nuqtayi nazardan, harbiy ta'lim jarayonida sun'iy intellekt vositalaridan foydalanish, kursantlarda analitik tafakkur, axborot bilan ishlash madaniyati va tezkor tahlil qilish kompetensiyalarini rivojlantiradi. Masalan, ma'lumotlar bazalari, vizual tahlil platformalari, elektron xaritalar, intellektual qaror qabul qilish modullari yordamida kursantlar murakkab vaziyatlarni qisqa vaqt ichida baholash, xavf ehtimolini aniqlash va optimal harakat variantlarini ishlab chiqishga o'rganadilar. Bu esa ularning kasbiy tayyorgarligini real xizmat vazifalariga yanada yaqinlashtiradi.

Harbiy ta'limning samaradorligi ko'p jihatdan pedagogik yondashuvlarning zamonaviy texnologiyalar bilan uyg'unligiga bog'liq. Sun'iy intellektni harbiy ta'limga joriy etish faqat texnik vositalarni kiritish bilangina cheklanmaydi. Bu jarayon o'quv dasturlarini yangilash, pedagog kadrlarning raqamli kompetensiyasini oshirish, ta'lim metodikasini takomillashtirish va axborot xavfsizligini ta'minlash bilan chambarchas bog'liqdir. O'qituvchi endilikda faqat bilim beruvchi emas, balki ta'lim jarayonini boshqaruvchi, texnologik vositalardan samarali foydalanuvchi, individual yondashuvni tashkil etuvchi va kursantning mustaqil faoliyatini yo'naltiruvchi subyekt sifatida faoliyat yuritishi zarur bo'ladi. Shu ma'noda, sun'iy intellekt harbiy ta'lim tizimida o'qituvchi mehnatini siqib chiqarmaydi, aksincha uning pedagogik imkoniyatlarini kengaytiradi va boshqaruv samaradorligini oshiradi.

Bundan tashqari, sun'iy intellekt yordamida harbiy ta'limda masofaviy va aralash ta'lim formatlarini rivojlantirish imkoniyati ham kengayadi. Ayrim nazariy mashg'ulotlar, test sinovlari, interaktiv topshiriqlar, o'quv modullari va tahliliy mashqlarni raqamli platformalarda tashkil etish ta'lim jarayonining uzluksizligini ta'minlaydi. Bu, ayniqsa vaqt va resurslardan oqilona foydalanish, o'quv yuklamalarini optimallashtirish, o'quv materiallariga tezkor kirish va mustaqil ta'lim ko'nikmalarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, raqamli muhitda o'quv natijalarining avtomatik tahlili ta'lim sifatini muntazam nazorat qilish va boshqarish imkonini beradi. Dasturiy ta'minot va xavfsiz raqamli infratuzilma talab etiladi.

Ikkinchidan, pedagog va instruktorlarning sun'iy intellekt vositalaridan foydalanish bo'yicha metodik tayyorgarligi yetarli bo'lishi kerak.

Uchinchidan, harbiy soha o'zining maxfiylik, axborot xavfsizligi va ma'lumotlarni himoya qilish talablariga ega bo'lgani sababli sun'iy intellekt tizimlarini joriy etishda bu jihatlarni alohida nazorat ostida bo'lishi lozim.

To'rtinchidan, texnologiyaga haddan tashqari tayanish inson omili, ma'naviy-irodaviy tayyorgarlik, intizom va jamoaviy harakat kabi harbiy kasb uchun muhim bo'lgan sifatlarni ikkinchi planga surib qo'ymasligi kerak. Demak, sun'iy intellektdan foydalanish texnologik imkoniyatlar bilan pedagogik va axloqiy mezonlar uyg'unligida olib borilishi maqsadga muvofiqdir.

Umuman olganda, sun'iy intellekt harbiy ta'limni modernizatsiya qilish, ta'lim sifatini oshirish, kursantlarning bilim va ko'nikmalarini chuqurlashtirish, real vaziyatlarga mos tayyorgarlikni kuchaytirish va boshqaruv samaradorligini ta'minlashda katta imkoniyatlarga ega. U o'quv jarayonining moslashuvchanligini oshiradi, amaliyotga yo'naltirilgan yondashuvni kuchaytiradi, tahlil va baholash tizimini takomillashtiradi hamda zamonaviy harbiy mutaxassisni tayyorlashning muhim texnologik asosiga aylanadi. Shu bois harbiy ta'lim tizimida sun'iy intellektdan foydalanish masalasi zamonaviy pedagogika, axborot texnologiyalari va harbiy tayyorgarlik kesishgan nuqtada turgan istiqbolli yo'nalishlardan biri sifatida baholanishi lozim.

Statistik tahlillar: 1. Sun'iy intellektni ta'limga joriy etish uchun umumiy raqamli tayyorgarlik oshib bormoqda, ammo kompetensiya tafovuti saqlanib qolmoqda. UNESCO ma'lumotiga ko'ra, 2025-yilda dunyo aholisining 74 foizi internetdan foydalangan. Shu bilan birga, internetga ulanish darajasi barcha ta'lim bo'g'inlarida bir xil emas: boshlang'ich maktablarning atigi 40 foizi va quyi o'rta maktablarning 50 foizi internetga ulangan. Yana bir muhim ko'rsatkich shuki, oliy ta'lim mutaxassislarning 92 foizi AI vositalaridan foydalanayotganini bildirgan bo'lsa-da, ulardan faqat 23,6 foizi o'zini bu borada "juda ishonchli" deb baholagan. Bu holat harbiy ta'limda ham texnologiyani joriy etish bilan birga undan samarali foydalanish kompetensiyasini alohida shakllantirish zarurligini ko'rsatadi.

2. Oliy ta'lim muassasalarida AI bo'yicha institutsional siyosat tez sur'atda shakllanmoqda. UNESCOning 90 mamlakatdagi 400 ta javob asosida o'tkazgan global so'rovda respondentlarning 19 foizi o'z muassasasida AI bo'yicha rasmiy siyosat mavjudligini, yana 42 foizi esa bunday yo'riqnoma ishlab chiqilayotganini bildirgan. Demak, jami 61 foiz muassasada AI bo'yicha institutsional tartibot mavjud yoki shakllanish bosqichida. Shu so'rovda respondentlarning 10 nafaridan 9 nafari AI vositalaridan professional faoliyatda foydalanayotganini bildirgan, biroq respondentlarning chorak qismi universitetlarida AI bilan bog'liq etik muammolar allaqachon uchraganini qayd etgan. Bu ko'rsatkichlar harbiy ta'limda AI faqat texnik vosita emas, balki me'yoriy, etik va boshqaruv masalasi ham ekanini ko'rsatadi.

3. Harbiy sohada modernizatsiya bosimi kuchayib borayotgani sababli ta'lim tizimida ham samarador texnologiyalarga ehtiyoj ortmoqda. SIPRI ma'lumotiga ko'ra, jahon harbiy xarajatlari 2024-yilda 2,718 trillion dollarga yetgan, bu 2023-yilga nisbatan 9,4 foiz o'sishdir. 2015–2024-yillar oralig'ida global harbiy xarajatlar 37 foizga oshgan, global "harbiy yuk" esa YAIMning 2,5 foiziga yetgan. Bu raqamlar to'g'ridan to'g'ri harbiy ta'lim ko'rsatkichlari bo'lmasa-da, ular harbiy tizimlarda resurslarni yanada

aniq, tezkor va natijador tayyorlov texnologiyalariga yo'naltirish ehtiyoji kuchayganini anglatadi. Shu jihatdan AI va simulyatsion o'qitish vositalari xarajat, samaradorlik va tayyorgarlik sifatini oshirishning muhim yo'nalishi sifatida namoyon bo'ladi.

4. Simulyatsion va o'yinlashtirilgan harbiy tayyorgarlik usullari amaliy bilim va qaror qabul qilish sifatini oshiradi. "Tactical Combat Casualty Care" yo'nalishidagi tadqiqotda 148 nafar ishtirokchi jalb etilgan bo'lib, ulardan 78 nafari videokurs, 70 nafari esa o'yin-simulyatsiya asosida tayyorlangan. Natijada har ikki guruhda bilim ko'rsatkichlari oshgan, ammo *game simulyatsion* guruhi o'quv natijalari bo'yicha videokursdan ustun chiqqan: o'rganish samaradorligida farq $P=0.02$, o'ziga ishonch va o'zini baholash ko'rsatkichlarida esa $P<0.01$ bo'lgan. Beshta simulyatsion vazifa bo'yicha o'rtacha bajarish vaqti 13,6 daqiqani, o'rtacha ball 279/500 ni tashkil etgan; bu esa tizim kursantning xatolari va sust nuqtalarini aniq diagnostika qila olishini ko'rsatadi.

5. Parvoz va texnik aniqlik talab etiladigan yo'nalishlarda simulyatorlardan foydalanish o'lchanadigan natija beradi. Dron uchuvchilarini tayyorlash bo'yicha 2024-yilgi tadqiqotda simulyator-trening olgan guruhda yakuniy og'ish ko'rsatkichi o'rtacha 32 foizga kamaygan. Tadqiqotda intervensiya guruhining o'rtacha og'ishi 1,475 metrden 0,998 metrga tushgan va guruh farqi statistik jihatdan ahamiyatli bo'lgan ($F(1,78)=7.643$; $p=0.007$). Bu natija harbiy aviatsiya, uchuvchisiz apparatlar, nishonga yo'naltirish va tezkor boshqaruv kabi yo'nalishlarda AI bilan boyitilgan simulyatsiya kursantlarning amaliy aniqligini sezilarli oshirishi mumkinligini ko'rsatadi.

6. Harbiy ta'limda individual yondashuv zarur, chunki kursantlar bir xil o'quv profiliga ega emas. 619 nafar harbiy talaba ishtirok etgan, javob qaytarish darajasi 45,85 foiz bo'lgan tadqiqotda 4 ta turli o'quv profili aniqlangan: yuqori motivatsiyali guruh, *past self-efficacy* va yuqori xavotirli guruh, o'rtacha motivatsiyali guruh hamda notekis o'quv profili guruh. Tadqiqot mualliflari LMS, harbiy simulyatorlar va boshqa raqamli vositalar aynan shu farqlarni hisobga olgan holda shaxsiylashtirilgan o'qitishni kuchaytirishi mumkinligini ta'kidlaydi. Bu esa harbiy ta'limda sun'iy intellektning eng katta afzalligi – "bir xil dastur hamma uchun" yondashuvidan "moslashtirilga tayyorgarlik" modeliga o'tish ekanini anglatadi.

Keltirilgan statistik ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellektni harbiy ta'limga joriy etish 3 asosiy natijani beradi: birinchidan, o'quv jarayonini individuallashtiradi; ikkinchidan, simulyatsion mashg'ulotlar orqali amaliy aniqlik va qaror qabul qilish sifatini oshiradi; uchinchidan, ta'lim natijalarini real vaqt rejimida tahlil qilish imkonini yaratadi. Ayniqsa, ayri

simulyatsion kontekstlarda 32 foizgacha aniqlik yaxshilanishi va o'yinlashtirilgan harbiy-tibbiy tayyorgarlikning video o'qitishdan ustun chiqishi sun'iy intellekt asosidagi vositalarning harbiy ta'lim samaradorligini oshirishda amaliy ahamiyatga ega ekanini tasdiqlaydi.

Sun'iy intellekt o'quv jarayonini moslashtirish, kursantlarning bilim darajasini tahlil qilish, sust o'zlashtirilgan mavzularni aniqlash va individual tavsiyalar ishlab chiqish imkonini beradi. Demak, ushbu mavzuni ilmiy asosda tadqiq etish orqali harbiy ta'limda shaxsga yo'naltirilgan samarali model ishlab chiqish zarurati yuzaga keladi.

Mavzuning o'rganilishi yana shu bilan ham muhimki, harbiy ta'limda nazariya va amaliyot o'rtasidagi uyg'unlikni ta'minlash ustuvor vazifa hisoblanadi. Harbiy xizmat faoliyati ko'pincha xavfli, murakkab va tezkor qaror qabul qilishni talab etadigan vaziyatlar bilan bog'liq bo'ladi. Bunday sharoitlarda faqat nazariy bilim bilan cheklanib qolish yetarli emas. Sun'iy intellekt asosidagi simulyatsiyalar, virtual trenajyorlar va tahliliy platformalar kursantlarga real vaziyatlarga yaqin muhitda mashq qilish imkonini beradi. Shu sababli bu mavzuni o'rganish nafaqat pedagogik, balki amaliy harbiy tayyorgarlik sifatini oshirish nuqtayi nazaridan ham zarurdir.

Bundan tashqari, sun'iy intellektni harbiy ta'limga joriy etish o'qituvchilar faoliyatini ham yangi bosqichga olib chiqadi. Endilikda pedagogdan faqat bilim berish emas, balki raqamli vositalardan samarali foydalanish, ta'lim natijalarini tahlil qilish, individual yondashuvni yo'lga qo'yish va o'quv jarayonini texnologik jihatdan boshqarish talab etiladi. Shu bois mavzuni o'rganish pedagog kadrlarning raqamli kompetensiyasini rivojlantirish, zamonaviy metodik yondashuvlarni ishlab chiqish va harbiy ta'lim mazmunini takomillashtirish uchun ham muhimdir.

Yana bir muhim jihat shundaki, sun'iy intellekt texnologiyalarini harbiy sohada qo'llash axborot xavfsizligi, maxfiylik, etik me'yorlar va inson omilining rolini saqlab qolish kabi masalalarni ham kun tartibiga olib chiqadi. Shuning uchun ushbu mavzuni o'rganish faqat texnologik imkoniyatlarni aniqlash bilangina cheklanmay, balki ularni pedagogik, tashkiliy va axloqiy mezonlar bilan uyg'unlashtirish yo'llarini ishlab chiqishni ham taqozo etadi. Bu esa tadqiqot mavzusining ilmiy ahamiyatini yanada oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, sun'iy intellekt texnologiyalarini harbiy ta'lim tizimiga joriy etish o'quv jarayonining sifat va samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Mazkur texnologiyalar yordamida ta'lim jarayonini individuallashtirish, kursantlarning bilim va ko'nikmalarini aniq tahlil qilish, amaliy mashg'ulotlarni real sharoitga yaqinlashtirish

hamda tezkor qaror qabul qilish kompetensiyalarini shakllantirish imkoniyati kengayadi. Sun'iy intellekt nafaqat o'qitish vositasi, balki ta'lim jarayonini boshqarish, monitoring qilish va natijadorligini baholashning zamonaviy mexanizmi sifatida ham namoyon bo'ladi.

Shuningdek, sun'iy intellekt asosidagi simulyatsiyalar, virtual trenajyorlar va adaptiv platformalar bo'lajak harbiy mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligini kuchaytiradi, ularni murakkab va tezkor vaziyatlarda samarali harakat qilishga tayyorlaydi. Bu esa zamonaviy harbiy ta'limning mazmunini boyitib, nazariya va amaliyot o'rtasidagi uzviylikni ta'minlaydi. Shu bilan birga, sun'iy intellektdan foydalanish pedagoglarning raqamli kompetensiyasini oshirish, axborot xavfsizligini ta'minlash va ta'lim jarayonida etik me'yorlarga rioya qilishni ham talab etadi. Demak, sun'iy intellektni harbiy ta'limga oqilona va maqsadli tatbiq etish raqobatbardosh, zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega harbiy kadrlarni tayyorlashning muhim sharti hisoblanadi.

Shu nuqtayi nazardan, sun'iy intellekt yordamida harbiy ta'lim samaradorligini oshirish masalasini ilmiy jihatdan tadqiq etish muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

Tavsiyalar: 1. Harbiy ta'lim muassasalarida sun'iy intellekt asosidagi o'quv platformalari va adaptiv ta'lim tizimlarini bosqichma-bosqich joriy etish maqsadga muvofiq.

2. Kursantlarning amaliy tayyorgarligini kuchaytirish uchun virtual trenajyorlar, simulyatsion mashg'ulotlar va intellektual tahlil tizimlaridan keng foydalanish zarur.

3. Harbiy pedagog va instruktorlarning sun'iy intellekt vositalaridan foydalanish bo'yicha metodik hamda raqamli kompetensiyalarini muntazam oshirib borish lozim.

4. Ta'lim jarayonida sun'iy intellektdan foydalanishda axborot xavfsizligi, maxfiylik va etik me'yorlarga qat'iy rioya etish mexanizmlarini ishlab chiqish kerak.

5. Harbiy ta'lim samaradorligini baholashda sun'iy intellekt asosidagi monitoring, diagnostika va prognozlash tizimlarini qo'llash tavsiya etiladi.

6. Sun'iy intellektni joriy etishda texnologik vositalarni pedagogik maqsadlar bilan uyg'unlashtirish, inson omili va harbiy intizom ustuvorligini saqlab qolish muhimdir.

7. Mazkur yo'nalishda ilmiy-amaliy tadqiqotlarni kengaytirish, xorijiy tajribalarni o'rganish va milliy harbiy ta'lim tizimiga mos innovatsion modellarni ishlab chiqish zarur.

Iroda BABAJANOVA,
Harbiy xavfsizlik va mudofaa universitetining Harbiy aviatsiya instituti professori,
Suxrobjon SALIMOV,
Harbiy aviatsiya instituti kursanti



Surat sun'iy intellekt yordamida tayyorlandi

“Eng yaxshi kitobxon” tanlovi nomzodlari uchun

“Yigitga yarashar yigit jomasi”, deb yozgandi akademik shoir G’afur G’ulom. Ana shunday yarashiqli joma – libos, forma sohiblaridan biri uchuvchilar. Ko’pchilik bir marta bo’lsa ham, samolyotda uchishni orzu qilgan. Bu orzu mingyilliklarga borib taqaladi.



Surat sun'iy intellekt yordamida tayyorlandi

BURCH HAQIDA UCH HIKOYA

Aynan shu narsa jahon xalqlari folklorini uchar gilam, uchar ajdaho, uchar tulporlar va boshqa “uchar”lar bilan boyitgan. O’tmishdagi valiyalar ham karomat sifatida havoda muallaq turish yoki qisqa parvozlarni ko’rsatgani xabarlarda keladi. Insonning parvoz qilish orzusini chinakamiga amalga oshirgan aka-uka Raytlar yangi davrni boshlab berdi.

Shundan buyon ham bir asrdan ortiq vaqt o’tdi. Garchi XXI asr odamlarini uncha-muncha narsa bilan hayratlantirib bo’lmasa ham, samolyot haqida o’ylaganda beixtiyor tasavvurimiz zo’riqadi.

Ana shunday mo’jizani boshqarayotganlar qanday odamlar ekan-a? Nahotki, ular ham siz-u bizga o’xshagan banda bo’lsa? Ular nimani o’ylaydi, hayotlari qanday? Osmonda yurgan odam yerni qanday ko’radi? Turmushlari ham samoviy romantikaga to’lami? Savollar ko’pligi, tabiiy. Axir ba’zilar yengil mashinani boshqara olmayotgan

bir paytda havo kemasini boshqarish hazil gapmi. Abdulla Oripov satri bilan yozganda:

*Odamlar, odamlar, uni olqishlang,
Qarang, u naqadar epchil va o’ktam.
Biz-chi, eh... ba’zi bir ko’zi ochiqlar
Eplab yurolmaymiz katta yo’lda ham.*

Men uchuvchilar haqida shunday bir kitob o’qidimki, qahramonlarini olqishlashni ham, ayblashni ham bilmay qoldim. Balki, siz bilarsiz, aziz o’quvchi? Unda o’qiganlarim haqida qisqacha aytib beraman.

“Ikki karra qahramon”. Hikoya hayotiyligi bilan alohida e’tirofga loyiq. Esingizda bo’lsa, 2001-yilgi Amerikadagi egizak binolarning portlatilishi oqibatida aeroportlar samolyotlarni qabul qilmay qo’yadi. O’sha og’ir vaziyatda ham chorasini topgan uchuvchi samolyotni harbiy aeroportga qo’ndirib, bortdagi yo’lovchilar jonini saqlab qoladi. Bu ulkan jasorati uchun qahramonlik ordeni bilan taqdirlanadi. Mening xayolimni olgan qahramonlik esa ikkinchisi.

Dunyoda yashar ekanmiz, nafsimiz bilan muntazam kurashib kelimiz. Bu jangda yenggan, yengilgan vaziyatlarimiz juda ham ko’p bo’ladi. Ba’zida insonda shunday vaziyatlar bo’ladiki, bariga “Bor-ey!” deb qo’l siltab yuborasan kishi. Hikoya qahramoni Muhammadkamol ham shunday og’ir vaziyatda bariga qo’l siltab yuborishni judayam istaydi. Ammo burchga, kasbga sadoqat uni bu ko’ngilsizlikdan saqlab qoladi. Kuyovining samolyot bortida qilayotgan xunrezliklari Kamolni bir muddat esankiratib qo’yadi. Ko’z qorachig’idek asragan yolg’izgina qizini bu ablahning qo’liga topshirganidan afsus va nadomatlar ichida qolib ketadi.

Bir xayoli samolyot bortini ochib, bariga yakun yasab, bu ikki yuvuqsizni ulotqirib yuborgisi, samolyotni boshqaruvdan chiqarib, bariga yakun yasagisi ham keladi. Ammo yuqorida aytganimdek, burch va kasbga sadoqat uni bunday xayollardan qutqaradi. Kamol o’sha mash’um kunda ham, bunday og’ir vaziyatga tushmagandi. Aslini olganda, Kamol uchun mana shu holatda samolyotni qo’ndira olgani birinchisidan ham katta qahramonlik edi.

“Osmoni falaklarda” hikoyasi qahramoni Rashod Shamshetov qo’pol, qo’rs, odamoviligiga qaramasdan, ikki vaziyatda haqiqiy insoniy jihatlarini ochib beradi. Hikoyani o’qir ekansiz, yosh uchuvchi Badalovni qo’yarga qo’ymay, mayxona sari boshlagan Shamshetov undan qo’shiq kuylab berishini talab qiladi. Uyatchan, tortinchoq Badalov nima deyarini bilmay turgan vaziyatda Shamshetov Murodjon Ahmedovning “O’rtar” qo’shig’ini baralla ovozda kuylaydi. Mana shu yerda Shamshetovning ichida ulkan shaxs yotganini ko’rasiz.

Ikkinchi bor iqrar bo’lgan joyim esa sobiq uchuvchi, sobiq vazir Eshmetovga ko’rsatgan hurmat-ehtiromi bilan bog’liq. Ishdan

haydalib ketishi, qamalishi tayin bo’lib turgan bir vaziyatda ham komandirini hurmat qilishlarini, u boshqarayotgan samolyotda uchuvchini qo’lida kishan bilan olib ketmasligini so’raydi. Qo’lida turgan buyruq bilan do’q-po’pisa qilayotgan podpolkovnikka “Menda vijdon bor” deya javob beradi.

“Bir kishilik aviahalokat” – eng sevib o’qigan hikoyam. Yosh, navqiron yigitning ko’ngliga o’t solgan bu jayronko’z qizning qilmishlari o’quvchini o’yga toldirib qo’yishi tayin. Aybdorga chiqarib qo’yishgacha bordim, o’zim ham. Biroq unutib qo’yilgan yana bir ayol bor, bu hikoyada. Yaxshigul. Gul umrini Iskandarga bag’ishlagan, farzandlarini tarbiyalab ulg’aytirayotgan bu ayolga ham xiyonat sahnasi hech kimning yodiga tushmaydi. Adib bir gapning o’rtasida “Xiyonatning to’lovi xiyonat” deya ta’kidlab ketadi. Aslida ham shunaqa emasmi?

Hikoya o’quvchini savollarga ko’mib tashlaydi. Iskandarning unutib qoldirilgan hujjatlari Sadafning cho’ntagida paydo bo’lib qolgan sahnani ko’zimning oldiga keltiraman. Qanday qilib kelib qoldi, Sadafning cho’ntagiga, bu hujjatlar? Balki bari uyushtirilgandir, Iskandarning yana qaytib kelishini oldindan bilgan, deyman Sadaf. Yana xayollarim bir yerlarga olib ketadi.

Kitobni o’qib tugatar ekanman, asar burch, sadoqat, shaxsiyat ustiga qurilganiga guvoh bo’laman. Uchala qahramon ham har qanday vaziyatda bo’lmasin, burchini bekam-u ko’sst bajardi. Ko’nglida yashayotgan shaxslarni o’z erkiga qo’ymadi, mas’uliyatni unutmadi. Yozuvchi inson kechinmalari bilan juda ko’p o’ynashgan, ammo qahramonlarning burchini esdan bir laha ham chiqarmagan.

Muhammadali G’AFFOROV,
“Vatanparvar”

Ko'ngil so'zi

CHILPIQ QAL'ASI: OFITSER QALBIDA QOLGAN SARHADLAR



Qo'ng'iro't-Toshkent poyezdi temiryo'llar bo'ylab ohista tebranarkan, oyna ortida yastanib yotgan kengliklar bag'ridan tanish va qadrdon bir manzara ko'zga tashlanadi. Amudaryoning o'ng qirg'og'ida, xuddi osmon bilan zaminni tutashtirib turgandek viqor bilan qad rostlagan aylana shaklidagi tepalik – mashhur Chilpiq qal'asi.

Poyezd yo'lovchilari uchun bu shunchaki qadimiy obida yoki YUNESKO ro'yxatidagi yodgorlik bo'lishi mumkin. Ammo men uchun – umrining unutilmas yillarini Shimoli-g'arbiy harbiy okrug qo'shinlari safida o'tkazgan, bugun esa xizmat taqozosi bilan yurtimizning boshqa bir hududiga ko'chirilgan ofitser uchun bu sirli va tirik tarixdir.

Harbiy hayot – bu tinimsiz harakat va o'zgarmas burch demak. Bugun men yangi xizmat joyida Vatan himoyasi yo'lidagi sharafl

vazifamni davom ettiryapman, yelkamdan harbiy libos, qo'limdan qurol tushgani yo'q. Ammo qalbimning bir bo'lagi hamon o'sha Shimoli-g'arbiy harbiy okrug kengliklarida, Orol bo'yi tuproqlarida qolgan.

2025-yili Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi Raisi tomonidan ushbu hududdagi ko'p yillik xizmatlarim e'tirof etilib, "Watan pidayisi" ("Vatan fidoyisi") ko'krak nishoni bilan taqdirlanganimda, qalbimda jo'sh urgan faxr tuyg'usini so'z bilan ta'riflash qiyin. Bu

mukofot men uchun nafaqat o'tgan xizmat yillarimning sarhisobi, balki yangi maskandagi yangi marralar sari undaguvchi ulkan mas'uliyatdir.

Yangi xizmat joyimga o'tlarkanman, Chilpiq qal'asi poyida o'zbek va qoraqalpoq xalqlarining tarixi qanchalik o'zaro chambarchas bog'lanib ketganini yana bir bor chuqur his qildim. Bu mingyillik rishtalardir. Qal'a devorlaridagi har bir paxsa, Amudaryoning har bir to'lqini bu ikki elning

do'stligi va bag'rikengligiga guvoh. Xizmat taqozosi bilan Qoraqalpog'iston zaminida bo'lgan davrimda qoraqalpoq birodarlarimning mardligi va mehmondo'stligini ko'rib, bu yerda men hech qachon begonalikni his qilmadim. Bizning tariximiz bir, taqdirimiz mushtarak. Bugun boshqa hududda xizmat qilayotgan bo'lsam-da, o'sha bag'rikeng elning mehri hamon qalbimda yashaydi.

Professional harbiy sifatida Chilpiqqa qaraganimda, ko'z oldimga zamonaviy radiolokatsiya stansiyalari yoki tezkor shtablar keladi. To'g'ri, arxeolog olimlar, xususan 1940-yilda akademik Tolstov boshchiligidagi ekspeditsiya bu yerdan ostadonlar topib, miloddan avvalgi II-IV asrlarda bu maskan otashparastlarning "daxma"si bo'lganini isbotlagan. Biroq meni lol qoldirgan jihat Xorazmshohlar davrida bu obidaning harbiy-strategik istehkomga aylanganidir.

Ajdodlarimiz Chilpiqni mudofaa tizimining muhim signal va xabar yetkazish minorasiga aylantirishgan. Buni bugungi harbiy til bilan aytganda, o'ziga xos "tezkor ogohlantirish posti" deyish mumkin.

Tarixiy-harbiy kuzatuv: tepalik ustida joylashgan, ichki radiusi 12 metrli bu doira shaklidagi istehkomdan atrof

kaftdek namoyon bo'lgan. Dushman yaqinlashganda minora tepasida olov yoqilgan yoki kunduzi tutun chiqarilgan. Bu zanjirsimon signal bir necha daqiqa ichida qo'shni qal'alarga yetib borgan va butun qo'shin jangovar shaylikka keltirilgan.

Xizmat kunlarimda Chilpiq poyidan o'tganimda, xayolan o'sha devorlar tepasida, sovuq shamolda mash'ala tutib, yurt mudofaasida sergak turgan askarlarni tasavvur qilardim. Bugun men boshqa bir viloyatda, yangi bir mudofaa chizig'ida turibman, ammo maqsad o'sha-o'sha – Vatanni, el-yurtini himoya qilish!

Poyezd olis kengliklar sari intilarkan, Chilpiq qal'asi ortda qoladi. Ko'ksimdagi "Watan pidayisi" nishoniga boqib, qalbimni cheksiz faxr tuyg'usi qamrab oladi: men mana shunday buyuk o'tmishga ega, ikki xalqning do'stligi abadiy muhrlangan muqaddas zaminda xizmat qildim. Bugun yurtimizning qaysi burchagida bo'lmayin, zimmamdagi sharafl burchni harbiy qasamyodimga sodiq qolgan holda davom ettiraveraman.

**Podpolkovnik
Sayduvali ABDURAHMONOV,
Harbiy xavfsizlik va
mudofaa universitetining
Toshkent harbiy okrugi
fakulteti katta o'qituvchisi**

Tarix

QUROLLAR VA URUSHLAR

Tarixdan oldingi davrlarda, "barcha janglar paydo bo'lishidan" oldin, qabilalar o'rtasidagi to'qnashuvlar qo'l ostidagi vositalar – tayoqlar, toshlar, ov qurollari – nayzalar va ibtidoiy kamonlar yordamida o'tkazilgan.

Urushning o'zi I avlod urushlari – miloddan avvalgi II ming yillikning boshlarida, temir (*metall*) qurol-yarog'lar va anjomlar – qilichlar, qalqonlar, zirhlar paydo bo'lishi bilan paydo bo'lgan. Bu urushlarda janglar yakuni qo'ljangi bilan belgilangan.

XI-XIII asrlarda o'qotar qurollarning kashf etilishi urushlarning II avlodini boshlab berdi, ammo jangovar harakatlarning xarakterini unchalik o'zgartirmadi:



avvalgidek ko'p narsani qo'ljangi hal qilardi.

Vaziyat III avlod urushlarida o'zgardi, ularda tig'li qurollarning paydo bo'lishi jangovar harakatlarni asosan "kontaktsiz" amalga

oshirdi – dushman uzoq masofadan zarba berdi.

IV avlod urushlari davri avtomatik qurollarning paydo bo'lishidan boshlab hisoblanadi – hatto yaqin masofadagi janglarda ham

hamma to'pponchalar va to'pponcha-pulemyotlar hal qila boshladi. Qo'ljangi o'tmishda qoldi.

1945-yilda yadro quroli paydo bo'lishi bilan V avlod

urushi bo'ldi. Yaxshiyamki, raketa-yadro urushi jahon iqtisodiyoti va siyosatiga ta'sir ko'rsatgan bo'lsa-da, haqiqatga aylanmadi. Jangovar harakatlar esa IV avlod harbiy texnika va taktikalaridan foydalangan holda olib borilmoqda.

XX asr oxirida yuqori aniqlikdagi qurollardan ommaviy foydalanish boshlandi va nazariyotchilar VI avlod kontaktsiz urushlar davrining o'tishini e'lon qildi. Yangi qurolning ommaviy zarbalari yordamida har qanday dushman iqtisodiyotini vayron qilish mumkin deb hisoblanadi. Biroq raqibning markazlashgan iqtisodiyoti bo'lmasa, bu strategiya kuchsizdir. Aynan shunday dushman tarqoq partizan qurolli tuzilmalari bo'lib, rivojlangan mamlakatlar armiyalari hozir ular bilan jang qilmoqda va ehtimol, yaqin kelajakda ham jang qiladi. Shunday qilib, keyingi avlod urushlarining texnikasi va taktikasini yaratishga to'g'ri keladi.

**T. MAMATOV,
Serjantlar tayyorlash oliy
maktabi katta o'qituvchisi**

Surat sun'iy intellekt yordamida tayyorlandi

Press-tur

Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okrug tasarrufidagi Xayrobod garnizonida joylashgan harbiy qismda Surxondaryo viloyatida faoliyat yuritayotgan ommaviy axborot vositalari vakillari uchun press-tur tashkil etildi. Harbiy hayotning ochiq va mazmunli manzarasini namoyon etgan ushbu tashrif jurnalistlarga nafaqat xizmat jarayoni, balki askar hayotining mazmun-mohiyati, uning ortidagi mehnat va intizomni yaqindan his etish imkonini ham berdi.



JURNALISTLAR harbiy qismda



Tadbirning asosiy maqsadi jurnalistlarni muddatli harbiy xizmatchilarning "Bitta askar – bitta kasb" tamoyili asosida kasb-hunar egallash jarayonlari, ularning jangovar tayyorgarligi hamda xizmatda erishayotgan natijalari bilan bevosita tanishtirishdan iborat bo'ldi.

Harbiy orkestr sadosi ostida tantanali kutib olingan mehmonlar o'quv shaharchalariga yo'l olib, u yerda harbiy xizmatchilarning amaliy mashg'ulotlari, jangovar tayyorgarlik jarayonlari va sport tadbirlarini kuzatdi.

Press-tur davomida jurnalistlar harbiy xizmatchilar uchun yaratilgan shart-sharoitlar bilan tanishar ekan, bu muhitda xizmat intizomi shaxsiy rivoj bilan uyg'unlashganini yaqqol his etdi. Bu yerda har bir askar nafaqat jangovar qobiliyati, balki fikrlash doirasini ham kengaytirish, o'z ustida ishlash imkoniyatlari ham

tizimli yo'lga qo'yilganiga guvoh bo'ldi. Bunda, albatta Mudofaa vazirligi muassisligida nashr etilayotgan "Vatanparvar" gazetasi va "O'zbekiston armiyasi" jurnalining ham hissasi beqiyos ekani ta'kidlandi va ushbu nashrlar faoliyati haqida atroflicha ma'lumot berilib, ularning harbiy hayotni yoritishdagi o'rni alohida e'tirof etildi.

Madaniy-ma'rifiy dastur davomida askarlar ijrosida yangragan Vatanni ulug'lovchi kuy-qo'shiqlar oddiy chiqish emas, balki qalbdan chiqqan samimiy sado sifatida qabul qilindi. Har bir ohangda yurtga sadoqat, har bir misrada faxr tuyg'usi yaqqol sezilib, tadbir muhitini ma'naviy jihatdan yanada boyitdi.

Navbatdagi manzilda jurnalistlar muddatli harbiy xizmatchilarning oliy ta'lim muassasalariga tayyorgarlik jarayonlari, kasbga o'qitish kurslari hamda

kutubxonada tashkil etilgan kitobxonlik tanlovlariga hozirlik ishlarini kuzatdi. Bu jarayonlar yoshlarning bilim olishga bo'lgan intilishi va kelajakka ishonchini yanada mustahkamlayotgani bilan ahamiyatlidir.

Tadbir yakunida mehmonlar askar oshonasida bo'lib harbiy xizmatchilarning ovqatlanish sharoitlari, kunlik taomnomasi va davlat tomonidan yaratilgan ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimi bilan tanishdi. Bir piyola choy ustida o'tkazilgan ochiq muloqot esa samimiy savol-javoblarga, fikr almashuvlarga boy bo'ldi.

Muhimi, bir kunlik press-tur davomida jurnalistlar askarlar hayoti va xizmatining turli qirralarini yaqindan ko'rib, Qurolli Kuchlarda yaratilayotgan shart-sharoitlar, yoshlarning bilim olishi, kasb egallashi va ma'naviy kamolotiga qaratilayotgan e'tiborni munosib baholadi. Bu esa armiyamizda inson qadri va uning kelajagiga bo'lgan g'amxo'rlik ustuvor ekanini yana bir bor tasdiqladi.

**III darajali serjant
Akbar AHMEDOV**
Termiz garnizoni

Qo'mondon kubogi



G'ALABANI jamoaviy birdamlik belgilaydi



Maydonga tushgan har bir futbolchi bitta maqsadni ko'zlaydi – g'alaba. Ammo qo'mondon kubogi musobaqasi yana bir haqiqatni namoyon etdi, haqiqiy muvaffaqiyat faqat mahorat bilan emas, intizom, matonat va jamoaviy birdamlik bilan qo'lga kiritiladi.

Sharqiy harbiy okrugda o'tkazilgan ushbu musobaqa sport bellashuvidan ham ko'ra kengroq mazmun kasb etib, harbiy xizmatchilarning jismoniy va ruhiy tayyorgarligini sinovdan o'tkazgan muhim bellashuv bo'ldi.

Musobaqada okrug tasarrufidagi harbiy qismlarning saralangan jamoalari ishtirok etdi. Turnir davomida har bir uchrashuv yuqori sur'at, keskin kurash

va murosasiz bahslarga boy bo'ldi. Harbiy xizmatchilar nafaqat mahoratini, balki tezkor qaror qabul qilish, o'zaro ishonch va jamoa manfaatini shaxsiy manfaatdan ustun qo'yish kabi fazilatlarini ham namoyon etdi.

Sport – harbiy xizmatning ajralmas qismi hisoblanadi. Zero muntazam jismoniy mashg'ulotlar harbiy xizmatchining chidamliligi,

chaqqonligi va ruhiy barqarorligini mustahkamlaydi. Futbol esa aynan jamoaviy harakat, mas'uliyat va hamjihatlikni shakllantiradigan eng samarali sport turlaridan biridir. Shu jihatdan qo'mondon kubogi nafaqat musobaqa, balki harbiy jamoalarda o'zaro hamkorlik va do'stlikni mustahkamlovchi muhim platformaga aylandi.

Musobaqa yakunida g'olib va sovrindor jamoalar Sharqiy harbiy okrug qo'mondonligi tomonidan kubok, diplom hamda esdalik sovg'alar bilan taqdirlandi.

Bunday musobaqalar harbiy xizmatchilar qalbida sog'lom raqobat, g'alabaga ishonch va Vatanga sadoqat tuyg'ularini yanada mustahkamlaydi. Eng muhimi, ular harbiy jamoalarda jipslikni kuchaytirib, xizmat samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Gulihumo MAJIDOVA,
Sharqiy harbiy okrug
matbuot xizmati bosh mutaxassisi



O'zbek tilining INTERNETDAGI KELAJAGI

Bugungi kunda internet nafaqat axborot olish, balki til va madaniyatni aks ettirish maydoniga ham aylangan. Dunyo bo'ylab millionlab insonlar har kuni internetdan foydalanayotgan bir paytda har bir tilning raqamli makondagi o'rni uning kelajakdagi taraqqiyotiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. O'zbek tili ham bundan mustasno emas.

So'nggi yillarda O'zbekistonda internet foydalanuvchilari soni keskin oshdi. Ijtimoiy tarmoqlar, onlayn ta'lim platformalari, elektron tijorat va sun'iy intellekt texnologiyalarining rivojlanishi o'zbek tiliga bo'lgan ehtiyojni yanada kuchaytirmoqda. Lekin bu jarayonda qator muammolar ham mavjud.

Bir necha yil oldin internetdagi o'zbekcha kontent hajmi nisbatan kam edi. Ko'plab saytlar rus yoki ingliz tilida faoliyat yuritir, o'zbek tilidagi

materiallar esa cheklangan edi. Hozir esa vaziyat sezilarli darajada o'zgargan. Mahalliy yangiliklar saytlari, bloglar, podkastlar, YouTube loyihalari va Telegram kanallari o'zbek tilidagi auditoriyani shakllantirishga katta hissa qo'shmoqda. Ayniqsa, videokontent ishlab chiqaruvchilarning ko'payishi natijasida internetda o'zbek tilining ulushi ortib bormoqda. Ammo internetdagi o'zbekcha kontent sifati va hajmi hali ham global tillar bilan raqobat qila oladigan darajada emas.

Mutaxassislarning fikricha, asosiy muammo o'zbek tilidagi kontentning tizimli rivojlanmayotganidir. Masalan, ingliz tilida istalgan mavzu bo'yicha millionlab maqola, ilmiy ish, videodars va elektron kitoblarni topish mumkin. O'zbek tilida esa ko'plab sohalar bo'yicha sifatli materiallar yetarli emas. Texnologiya, tibbiyot, marketing, dasturlash, moliya kabi yo'nalishlarda o'zbek tilidagi resurslar hali ham cheklangan. Xorij tajribasiga kelsak, aholisi 1,4 milliondan kam bo'lishiga qaramay, Estoniya eston tili uchun elektron hukumat, raqamli xizmatlar va AI texnologiyalarini rivojlantirdi.

Bugungi kunda eston tili dunyodagi eng raqamlashgan kichik tillardan biri sifatida e'tirof etiladi. Qo'shni Qozog'iston esa qozoq tilini raqamli muhitda rivojlantirishga alohida e'tibor qaratmoqda. Mamlakatda qozoq tilida ishlaydigan sun'iy intellekt, avtomatik tarjima va ovozli xizmatlar yaratish uchun sarmoya kiritgan. Bu tilning internetdagi mavqeyini mustahkamlashga yordam bermoqda. O'zbekistonda ham o'zbek tilini raqamlashtirish bo'yicha dastlabki qadamlar tashlangan. Mahalliy mutaxassislar o'zbekcha sun'iy intellekt modellari, avtomatik tarjima tizimlari, nutqni matnga aylantirish dasturlari va elektron lug'atlar ustida ishlamoqda. Biroq bu yo'nalishdagi ishlar hali rivojlangan davlatlar tajribasiga nisbatan boshlang'ich bosqichda bo'lib, o'zbek tilidagi sifatli raqamli kontent hajmini yanada oshirish zarur.

Dunyoning aksariyat tillari internetda aynan Vikipediya orqali rivojlangan. Masalan, katalon, eston va ukrain tillarida yuz minglab maqola mavjud bo'lib, ular o'z tillarining raqamli rivojlanishida muhim rol o'ynagan. O'zbek tilidagi Vikipediya ham yildan yilga kengayib bormoqda. 2024-yilning iyun oyida o'zbekcha Vikipediya 300 mingdan ortiq maqolaga yetgan bo'lsa, 2022-yilda

o'zbekcha Vikipediya sahifasini ko'rish O'zbekistonda ilk bor ruscha Vikipediya ko'rsatkichidan oshib ketgan. Biroq maqolalarning sifatini yaxshi deb bo'lmaydi.

So'nggi besh yil ichida o'zbek tilidagi videokontent bozori sezilarli darajada rivojlandi. "State Globe" nashriga ko'ra, 2026-yilda O'zbekistonda 4,2 milliondan ortiq podkast tinglovchisi mavjud bo'lib, internet foydalanuvchilarining qariyb 25 foizi podkastlarni muntazam tinglaydi. Demak, auditoriya o'zbek tilidagi sifatli kontentni kutmoqda va uni faol iste'mol qilmoqda. Ayniqsa, biznes, shaxsiy rivojlanish va texnologiyalar mavzusidagi podkastlarga qiziqish kundan kunga ortyapti.

Bugungi kunda sun'iy intellekt texnologiyalari tilning internetdagi kelajagini belgilovchi asosiy omillardan biriga aylangan. Chatbotlar, tarjimonlar, ovozli yordamchilar va generativ sun'iy intellekt tizimlari katta hajmdagi ma'lumotlar asosida ishlaydi. Qaysi til internetda ko'proq va sifatli kontentga ega bo'lsa, sun'iy intellekt ham o'sha tilni yaxshiroq tushunadi. Agar o'zbek tilidagi raqamli ma'lumotlar bazasi kengaymasa, kelajakdagi texnologiyalar o'zbek tilini to'liq qo'llab-quvvatlashda qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin. Aksincha, bugundan boshlab sifatli kontent yaratish va uni raqamlashtirishga e'tibor qaratilsa, o'zbek tili kuchli raqamli tillardan biriga aylanadi.

Kelajakda internetda ustunlikka ega bo'ladigan tillar faqat tarixiy yoki siyosiy omillar tufayli emas, balki raqamli makondagi faolligi orqali ham belgilanadi. O'zbek tilining internetdagi taqdiri esa texnologiyalarni yaratadigan dasturchilar, kontent ishlab chiqaruvchilar, jurnalistlar, olimlar va oddiy foydalanuvchilarning bugungi harakatlariga bog'liq.

Mashhurabonu JABBOROVA,
O'ZJOKU 1-kurs magistranti

2-iyul – O'zbekiston Respublikasi davlat gerbi qabul qilingan kun

GERBIMIZ – g'ururimiz!

Gerbimizning shakli quyoshga o'xshar,
Bir yoni oq oltin, bir yoni bug'doy.
Qanotlarin yoyib, hurlikka timsol,
O'rtasidan olgan humo qushi joy.

Quyosh sochar unda zarrin nurini,
Tog'lar-u, daryolar ne'matlarga boy.
Dilingizga joylar baxt sururini,
Unda balqib turgan yulduzlar-u oy.

Bir qarang, barchasin bag'riga olmish,
Vatanim bayrog'i – tinchlikka sarbon.
Uning o'rtasiga qo'yilgan yozib,
Osiyo gavhari – jon O'ZBEKISTON!

Zulfiya YUNUSOVA

YURT RAMZIGA muhabbat

Yurt erki sanalur davlat gerbimiz,
Tog'-u daryolardur yurtga sevgimiz.
Bobodehqon bog'ida dasturxonimiz,
O'lkam quyoshidur elga sevgimiz.

Yarim oy, yulduzlar – ajdodlar ramzi,
Baxt-u erkka eltar avlodlar ramzi.
Qanot ochar mag'rur ezgulik qushi,
Yangi yurtni chorlar buyuklik sari.

Ramzda bitilgan nomdir O'zbekiston,
Bardavom yutuqlaring ko'rur bu jahon.

Adliya podpolkovnigi
Mahmud OCHILOV,
O'zbekiston Respublikasi Milliy
gvardiyasi bo'lim boshlig'i

Voqeyiy hikoya

Qo'shnilar bilan chaqchaqlashib, vaqt qanday o'tganini bilmay qolgan Hamida shom ostonasida uyiga shoshildi. Zinadan ko'tarilar ekan, "Xotinlar bilan suhbatlashish yaxshiyu, ishlaring qolib ketadi-da. Ovqatim qachon pishadi endi?" o'zini o'zi koyigan bo'ldi, juvon. Ovqat tayyorlash barobarida oshxona derazasidan pastda o'ynayotgan qiziga qichqirdi:

– Sahidaa, ukalaringni olib, tezda uyga kir! Hoooy, eshityapsanmi?!

– Oyijon, yana ozgina o'ynaylik?

– Uyga kir dedim, kech bo'lyapti.

– Hozir, – istamaygina javob

qaytardi, qizgina qovoqlarini uyib. – O'zingiz kechgacha "dom"dagi xotinlar bilan o'tirasiz, maktabdan kelib, ozgina o'ynay desam...

– Nima deb ming'irlayapsan? Onaga gap qaytarishni ko'rsatib qo'yaman, senga.

Kuygan piyozning hidi dimog'iga urilgan Hamida shoshilib qozon tepasiga keldi. "Vooy, piyoz kuyib ketibdi-yu! Senlarni deb ovqatim rasvo bo'ldi, hali uyga kirgin!.."

Xizmatdan qaytgan erini Hamida betoqat qarshi oldi.

– Namuncha kech qoldingiz, O'ktam aka?

– Ming yildan buyon shu savolni berasan. Erta kelsam ham shu savol, kech kelsam ham. Bir xil savoldan charchamading-da, onasi, – horg'in javob qaytardi kiyimlarini almashtirayotgan O'ktam. – Bugun og'ir kun bo'ldi, topshiriqlar ko'p.

– Xavotir olaman-da, xizmattingiz yengil emas, charchab qolmang, deyman.

– Bilaman, nimadan xavotir olishingni, – kesatdi yigit. – Dilingda doim shaytoniy rashk turadi.

– Ko'zga yaqin erkaksiz, yaxshigina lavozimdasiz, sizni hammadan qizg'ansam, nima qilay? – noz aralash gapini to'g'riladi juvon.

– Bu rashk emas, kasallik.

Atrofingdagi dugonalar har xil bema'ni voqealarni gapirib, miyangga joylab qo'ygan. Ertadan kechgacha xotinlar bilan valaqlashguncha foydali ish bilan shug'ullansang, bu darddan forig' bo'lasan. Senga bu gaplardan baribir foyda yo'q, yaxshisi ovqatingni olib kel, dam olmasam bo'lmaydi, juda charchaganman.

Erining haq gaplaridan ensasi qotgan Hamida oshxona tomon yurarkan, "Ovqatdagi kuygan piyoz ta'mini sezib qolsa, bitta ovqatni eplay olmay-san-u, rashkka balo bormi, deb yana kayfiyatimni buzadi", deya dilidan o'tkazdi.

Hamida ovqatni keltirguncha o'g'ilchalari va qizi bilan andamon bo'lgan O'ktam ovqatlanib bo'lgach, "Dam olmasam bo'lmaydi, ertaga xizmatga barvaqt borishim kerak", deya yotoqxonaga kirib ketdi. "Xayriyat, – yengil tin oldi juvon, – hozir ovqatni gapirib, kayfiyatimni buzadi, degandim. Erim bechora rostdan ham charchagan ko'rinadi".

Hamida yotoqxonaga kirganda, O'ktam dong qotib, uxlab yotardi. "Telefoni yoniq, bundan chiqdi, uxlashidan avval kim bilandir gaplashgan", erining telefonini asta qo'liga oldi ayol va ochib ulgurmay, yangi xabar keldi: "O'ktam aka, Dildoraman, kvartira topdim, izlamay qo'yavering". Hamidaning yuragi bir qalqib tushdi. "Dildora? Qaysi Dildora?!



Surat sun'iy intellekt yordamida tayyorlandi

RASHK OFATI

– qaltiray boshladi u. – Kvartira topdim, debdimi? O'ziga qolsa, shu tobda erini uyg'otib, savol-javob qilishga shay turgan juvon beixtiyor o'zini qo'lga oldi. "Shoshma, hozir O'ktam akani uyg'otib, xabar haqida so'rasam, har doimgidek, bir bahona topib, meni rashkchiga, tuhmatchiga chiqaradi. Keyin telefonimga ruxsatsiz tegma, deb ogohlantirgan, urishib qolishimiz aniq. Yaxshisi, xabarni hozir telefonimga ko'chirib olaman. Ertaga Dildora kimligini aniqlab, isboti bilan erimga yuzlanaman. O'shanda, qilib yurgan ishiga javob beradi!" Astoydil izquvarlikka bel bog'ladi Hamida. To ayolni topib, eriga yaqinligini isbotlamaguncha, bu haqda og'iz ochmaslikka o'ziga so'z berdi.

Hamida tuni bilan rashk alami, azobli o'ylar, hadsiz savollar, xiyonat iztirobi ichida to'lg'anib chiqdi. Eri bilan xayolan urishdi, xizmat joyiga borib, arz qilishni, o'sha ayol bilan ushlab olib, hammaning oldida sharmanda qilishni, bolalarini olib, ota uyiga ketishni ko'z oldiga keltirdi. Tongga yaqin uxlab qolgan juvon ko'zini ochganida eri allaqachon xizmatga ketib bo'lgandi. "Bolalarni maktab, bog'chaga olib borish kerak", – bazo'r o'midan qo'zg'aldi u. O'y-xayoli, dardi dunyosi hamon Dildorada edi. – "Uni topmasam bo'lmaydi, yo'qsa, rashkdan jinni bo'lib qolaman. Profilida telefon nomeri bo'lganda-ku, topish hech gap emasdi. Ammo juda tanish ism. Shoshma", hushyor tortdi Hamida. – Pandemiya avj olganida, O'ktam akani qo'l ostidagi harbiylar shahardagi shifoxona oldiga postga qo'yilgandi. Erim ham kun-u tun deyarli o'sha yerda bo'lgan. Shamollab qolganida, "Dildora ismli hamshiradan ukol olyapman, qo'li yengil, zo'r hamshira ekan", degandi. Haa, mana, gap qayerda, endi mendan ko'radi, o'sha yengiloyoq Dildora!.."

Hamida bolalarini maktab, bog'chaga olib bordi-yu, shifoxona tomon shoshildi. Shifoxonaga kirib borarkan, oppoq xalat kiygan hamshiralarning bari uning ko'ziga Dildora bo'lib ko'rinardi. "Hammasi pardoz-andozli, olifta, bir-biridan chiroyli, – o'zini ularga solishtira boshladi. – Men bolam, erim, uyim, deb o'zimga qaramay qo'yibman. Agar ishlaganimda, bulardan chiroyli yurardim. Erim bekorga ishlasang

bo'lmaydimi, demas ekan-da! Bularning ko'pi ko'z-qoshini bo'yab, men kabi sodda ayollarning erini yo'ldan uradi!" alami avjiga chiqdi juvonning. Dildorani topib, sochlarini bittalab yulgisi keldi.

– Singlim, Dildoraxon kerak edi, – ichidagi g'alayonga zid holda mayinlik ila yoshgina hamshiraga yuzlandi Hamida. – Qayerdan topsam bo'ladi?

– Dildora?!

– Ha, qo'li yengil hamshira, deb maqtashgandi.

– Dildora opami, to'g'ri maqtashibdi, tajribali hamshiralardan. Ammo u hozirgina navbatchilikni topshirib, uyiga ketdi.

– Uyiga ketdi, deng... Lekin juda zarur edi-da, uchrashmasam bo'lmaydi. Manzilini bilmaysizmi, yordam bering, singlim...

– Yanglishmasam, uylari shu yaqin-atrofd, – najot istab turgan ayoldan yuz burib ketgisi kelmadi hamshiraning. – Biroz kutsangiz, birga ishlaydigan sheriklaridan manzilini bilib beraman...

Dildora yashaydigan xonadon eshigini oltmish yoshlardagi basavlat erkak ochdi.

– Keling, qizim, kim kerak? – rangi uniqqan, to'g'rirog'i, gezarib turgan Hamidaga taajjub bilan qaradi u.

– Dildora kerak edi.

– Kelinim ota-onalar majlisiga maktabga ketgandi, tinchlikmi?

– Tinchlik emas-da, amaki! – ko'ziga yosh to'ldi Hamidaning. – Keliningiz oilamni buzmoqchi bo'lyapti.

– Nima, nimalar deyapsiz?.. Qani, uyga kiring, bemalol gaplashaylik.

Hamida dilida kechayotgan, xayolida charx urayotgan gumonlarni xuddi haqiqatdek, Dildoraning qaynotasiga to'kib soldi. So'zining isboti tariqasida yozgan xabarini ko'rsatdi. Hali o'zi ko'rmagan, tanimagan juvonga tuhmat qilayotganini, yaxshi bir oila parokandalikka yuz tutishini xayoliga ham keltirmadi.

– O'g'limga xotiningni kechki navbatchilikda qoldirma, degandim-a. Mana, oqibati! Menga bunday kelin kerak emas!

O'z nazarida katta ishni do'ndirgan, hamon yuragi rashkdan yonib turgan Hamida uyiga qaytdi. Alamzada juvon endi eri bilan hisob-kitob qilishi kerak...

– Telefon qilsam, ko'tarmaysan, bugun xizmatdan barvaqt chiqqandim,

– qo'lida bir qator bozorlik paketlar bilan kirib keldi O'ktam. – Ro'zg'ordagi kam-ketikni birga qilamizmi, degandim, sen bilan bog'lanib bo'lmadi. O'zim bozorlik qila qoldim.

– Bozorlik deng... – erining kayfiyati joyida ekanidan hayratlandi Hamida. "Nahot, Dildorasi xabar bermagan bo'lsa?"

– Nega serrayib turibsan, qo'limdagilarni olsang-chi?!

Hamida istamaygina erining qo'lidagi paketlarni olar ekan, gapni, to'g'rirog'i, janjalni nimadan boshlash haqida o'ylardi. Juvon endi og'iz juftlagandi hamki, O'ktamning qo'l telefoni ovoz berdi. Qo'li tolgan yigit telefonini stol ustiga qo'yib, baland ovoz tugmasini bosdi. Unda yoshgina qizning minnatdor so'zlari jarangladi:

– Men do'stingiz Hamdam akani singlisi Dildoraman, – salom-alikdan so'ng o'zini tanishtirdi qiz. – Sizga xabar yozib yuborgandim, javob bo'lmadi, shunga...

– Uzi, singlim, xizmat bilan bo'lib, e'tibor qilmabman.

– Men kursdosh dugonalarim bilan ijaraga uy topdim. Sizni ham xijolatga qo'ydik, ovora bo'lmang, deb qo'ng'iroq qilyapman. Akam ham telefon qilib qolsa kerak. Kelinoyimga salom ayting.

– Rahmat, singlim. Hamdam bilan qo'ng'iroqlashdim, kvartira topganingni aytdi. Qachon kelsang, eshigimiz ochiq, dugonalar bilan kelib, mehmon bo'lib ket...

Hamida turgan joyida tosh qotdi. "Nimalar qildim, nimalar qilib qo'ydim?! – oyoq-qo'li qaltiray boshladi uning. – Hamshiraning qaynotasi allaqachon kelinini haydab yuborgan bo'lsa kerak. U ayol O'ktam akani izlab harbiy qismga kelishi aniq. Chunki so'zim isboti bilan bo'lsin, deb qaynotasiga hamma ma'lumotni berganman. Tuhmatga qolgan ayol harbiy qismda janjal ko'tarsa... Erim meni haydab yuboradi endi..."

Hamidaning taxminlari to'g'ri chiqdi. Bemulohaza ayolning rashki sabab necha insonning halovati buzildi. Mas'ullar, yoshi ulug'lar, ota-onalar, hamkasblar... Tortishuvlar, janjallar, ko'zyoshlar, vayron bo'lgan ko'ngillar...

Rashk atalmish to'fon oilalarni yutib yuborishiga oz qoldi.

Uchrashuv

ASKAR OTA-ONALARI

harbiy qism mehmoni

Mamlakatimizda armiya va xalq o'rtasidagi ishonchni yanada mustahkamlash, harbiy xizmatchi shaxsi va uning oilasiga bo'lgan e'tiborni yangi bosqichga olib chiqish ustuvor vazifaga aylanmoqda. Zero askarning ma'naviy barqarorligi ortida, eng avvalo, uning oilasidagi xotirjamlik va ishonch turibdi. Shu nuqtayi nazardan, ota-onalarni farzandlarining xizmat sharoitlari bilan yaqindan tanishtirish, armiya hayotiga daxldorlik hissini kuchaytirish bugungi kunning dolzarb vazifasi sanaladi.



Ana shu maqsadda Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okrug tasarrufidagi Kakaydi garnizonida joylashgan harbiy qismda "Askar ota-onalari harbiy qism mehmoni" nomli uchrashuv tashkil etildi.

Shu kuni mehmonlar harbiy qismda yaratilgan shart-sharoitlar, zamonaviy jihozlangan o'quv xonalari, sport inshootlari hamda madaniy hordiq chiqarish maskanlari bilan tanishdi. Shu orqali ular farzandlari xizmat o'tayotgan muhitni o'z ko'zi bilan ko'rib, bu yerda tartib-intizom bilan bir qatorda g'amxo'rlik va e'tibor ustuvor ekanini his etdilar.

Tashrif davomida mehmonlar ushbu maskanda Prezidentimiz tashabbusi bilan joriy etilgan "Bitta askar – bitta kasb" tamoyili asosida amalga oshirilayotgan ishlar,

muddatli harbiy xizmatchilarning oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirishga tayyorgarligi, shuningdek kitobxonlikni keng targ'ib etishga qaratilgan sa'y-harakatlar bilan ham yaqindan tanishdi. Ota-onalar turli tanlovlarda muvaffaqiyat qozongan askarlar bilan suhbatlashib, kutubxona faoliyati orqali yoshlarning ma'naviy kamolotiga qaratilayotgan e'tiborga guvoh bo'ldi.

Keyingi manzil – harbiy qism madaniyat markazi bo'ldi. Bu yerda o'tkazilgan suhbat davomida harbiy qism komandiri mamlakatimizda harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolari uchun yaratilayotgan imkoniyatlar, milliy armiyamizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar hamda harbiy qismdagi xizmat jarayonlari haqida

atroflicha ma'lumot berdi. Ochiq muloqot tarzida o'tgan suhbatda ota-onalar o'zlarini qiziqtirgan savollarga batafsil javoblar oldi.

Tadbirning badiiy qismi ham qiziqarli bo'ldi. Unda askarlar tomonidan ijro etilgan she'rlar, kuy-qo'shiqlar va sahna ko'rinishlari orqali Vatanga sadoqat, ona yurtga muhabbat tuyg'ulari ifodalandi. Samimiy chiqishlar ota-onalar qalbida faxr va iftixor tuyg'ularini yanada mustahkamladi.

Yakunlovchi qismda jangovar tayyorgarlik, ma'naviy-ma'rifiy va jamoat ishlarida faol ishtirok etayotgan harbiy xizmatchilarning ota-onalari harbiy qism qo'mondonligi nomidan tashakkurnomalar bilan taqdirlandi. Bu e'tirof nafaqat farzand, balki uni

tarbiyalagan ota-ona mehnatiga berilgan yuksak baho sifatida qabul qilindi.

Ushbu tadbir ota-onalarni farzandlarining xizmat o'tash jarayoni, ular uchun yaratilgan shart-sharoitlar hamda amalga oshirilayotgan islohotlar bilan yaqindan tanishtirish barobarida armiya va oila o'rtasidagi o'zaro ishonch va hamkorlikni yanada mustahkamlashga xizmat qildi. Eng muhimi, bunday uchrashuvlar yoshlarni vatanparvarlik, mas'uliyat va fidoyilik ruhida tarbiyalashda oila va harbiy jamoaning hamjihatligini ta'minlayotgani bilan ahamiyatlidir.

Asadbek TURSUNOV,
TerDU talabasi

Bitta askar – bitta kasb

Shimoli-g'arbiy harbiy okrugning "Nukus" dala-o'quv maydonida Qoraqalpog'iston Respublikasida faoliyat yuritayotgan ommaviy axborot vositalari vakillari uchun press-tur tashkil etildi.

Tadbir muddatli harbiy xizmatchilarning "Bitta askar – bitta kasb" tamoyili asosida kasb-hunar egallash jarayonlari, ularning jangovar tayyorgarligi, xizmat faoliyatida erishayotgan yutuqlari bilan jurnalistlarni yaqindan tanishtirish maqsadida o'tkazildi.

Qurolli Kuchlarimizda yosh avlodni nafaqat Vatan himoyasiga tayyorlash, balki ularni hayotda mustahkam o'rin egallashiga xizmat qiladigan kasb-hunar bilan ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. "Bitta askar – bitta kasb" tamoyili aynan ana shu ezgu maqsadning amaliy ifodasi bo'lib, harbiy xizmat davomida askarlarga zamonaviy mutaxassisliklarni puxta o'zlashtirish imkoniyatini yaratmoqda.

Press-tur davomida OAV vakillari "Nukus" dala-o'quv maydonidagi



o'quv nuqtalarida bo'lib, muddatli harbiy xizmatchilarning jangovar tayyorgarlik mashg'ulotlarini kuzatdi. Harbiy xizmatchilar tomonidan namoyish etilgan amaliy ko'nikmalar, qurol-aslahalar bilan ishlash mahorati, taktik harakatlar, jismoniy tayyorgarlik va mutaxassisliklar bo'yicha egallagan bilim ko'nikmalari hamda xizmatga bo'lgan mas'uliyat jurnalistlarda katta taassurot qoldirdi.

Tadbir ishtirokchilari harbiy xizmatchilar uchun yaratilgan yashash va xizmat sharoitlari

bilan ham yaqindan tanishdi. Zamonaviy yotoqxonalar, maishiy xizmat xonalari, o'quv maskanlari, ma'naviyat va ma'rifat xonalari, sport majmualari hamda mazmunli hordiq chiqarish uchun yaratilgan imkoniyatlar harbiy qismda inson omiliga qaratilayotgan yuksak e'tiborning yorqin namunasi sifatida e'tirof etildi.

Harbiy xizmat – bu nafaqat qurol tutish, balki intizom, fidoyilik, sabr-toqat va mas'uliyat maktabi. "Nukus" dala-o'quv maydonida

xizmat qilayotgan askarlarning Vatanga bo'lgan cheksiz muhabbati, harbiy burchga sadoqati va yuksak vatanparvarlik ruhida olib borayotgan faoliyati press-tur qatnashchilarida chuqur faxr va iftixor tuyg'ularini uyg'otdi.

Tadbir yakunida ommaviy axborot vositalari vakillari harbiy xizmatchilarning matonati, intizomi va fidoyiligiga yuksak baho berib, ularga kelgusi xizmat faoliyatida ulkan muvaffaqiyatlar tiladi.

Yoshlar va sport

HARBIY-VATANPARVARLIK spartakiadasi

Yurt ravnaqi, xalq farovonligi va davlat xavfsizligi, avvalo, jismonan sog'lom, ma'nan yetuk, Vatan taqdiriga daxldorlik hissi bilan yashaydigan yosh avlod kamolotiga chambarchas bog'liq. Bugungi kunda mamlakatimizda yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, sog'lom turmush tarzini qaror toptirish hamda harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda.



qatnashdi. Jami 5 mingga yaqin yoshni qamrab olgan ushbu loyiha yoshlarning jismoniy chiniqishi, harbiy-amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish, yetakchilik fazilatlarini shakllantirish va jamoaviy hamkorlikni mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etdi.

Bellashuvlar davomida yoshlar o'zlarining qat'iyati, shijoati va g'alabaga bo'lgan intilishlarini namoyon etdi. Har bir ishtirokchi o'z jamoasi sharafini munosib himoya qilish uchun bor kuch va imkoniyatlarini ishga soldi. Musobaqa maydonlarida hukm surgan sog'lom raqobat muhiti, do'stlik va hamjihatlik ruhi yoshlarning bir-biriga bo'lgan hurmati va birdamligini yanada mustahkamladi.

Musobaqa yakunlariga ko'ra, 1-o'rinni Kegeyli tumani 41-umumta'lim maktabi jamoasi, 2-o'rinni Amudaryo tumani 40-umumta'lim maktabi jamoasi, 3-o'rinni Taxyatash tumani 22-umumta'lim maktabi jamoasi egalladi.


O'zbekiston yoshlar ittifoqi Qoraqalpog'iston Respublikasi Kengashi hamda Shimoli-g'arbiy harbiy okrug hamkorligida "O'zbekiston – yagona Vatan, unga xizmat qilish muqaddas burch!" shiori ostida "Harbiy-vatanparvarlik spartakiadasi" sport musobaqasi tashkil etildi.

Musobaqa nafaqat sport bellashuvi, balki yosh avlod qalbida Vatanga muhabbat, milliy g'urur va yuksak mas'uliyat tuyg'ularini shakllantirishga xizmat qilgan muhim ma'naviy-ma'rifiy tadbir sifatida katta ahamiyat kasb etdi.

Musobaqada Qoraqalpog'iston Respublikasining barcha tuman va shaharlaridagi umumta'lim maktablarining 9-11-sinf o'quvchilaridan iborat jamoalar



INSON MANFAATLARINI *ta'minlash yo'lida*



Bugungi kunda prokuratura organlari faoliyatida aholi bilan ochiq va to'g'ridan to'g'ri muloqotni yo'lga qo'yish, fuqarolarning huquq va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish ustuvor vazifalardan biriga aylangan. Ayniqsa, murojaatlar bilan ishlash tizimini takomillashtirish, har bir murojaatning ortida turgan inson taqdiriga mas'uliyat bilan yondashish bugungi islohotlarning asosiy mezonini sifatida qaralmoqda.

Shu nuqtayi nazardan, murojaat qilishga oid konstitutsiyaviy huquqning so'zsiz ta'minlanishi, kelib tushgan murojaatlarni to'liq, xolisona va o'z vaqtida ko'rib chiqish, ularning ijrosi ustidan samarali nazorat o'rnatishga alohida e'tibor berilmoqda. Shuningdek, jismoniy va yuridik shaxslar vakillarini qabul qilish, jumladan videokonferens-aloqa shaklida muloqotlarni tashkil etish, murojaatlarni ro'yxatga olish, tahlil qilish va tizimlashtirish amaliyoti izchil yo'lga qo'yilmoqda.

Mazkur vazifalar ijrosini ta'minlashda Respublika Bosh prokuraturasi tomonidan "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi qonun talablari ustidan doimiy nazorat o'rnatilib, murojaatlar bilan ishlash samaradorligini

oshirishga qaratilgan aniq chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Ana shunday amaliy ishlar doirasida poytaxtimizning Olmazor tumani Shodiyona mahallasida hamda Bektemir tumani hokimligida aholi murojaatlarini joyida o'rganish va hal etish maqsadida navbatdagi sayyor qabul tashkil etildi.

Unda tuman hokimlari, Bosh prokuratura vakillari, tuman prokuraturasi, ichki ishlar organlari hamda mutasaddi idora rahbarlari ishtirok etdi. Ochiq muloqot tarzida o'tgan qabul jarayonida fuqarolarning murojaat va takliflari tinglanib, ularni qiynayotgan muammolar atroflicha o'rganildi.

Qabul davomida ko'tarilgan masalalarning yechimi yuzasidan mas'ul tashkilotlar va mutasaddilarga

aniq vazifa va topshiriqlar berildi, ayrim murojaatlar joyida hal etildi, qo'shimcha o'rganish talab etadigani esa nazoratga olindi.

Asosiysi, fuqarolar bilan ochiq muloqot qilish, ularning muammolariga tezkor va adolatli yechim topish hamda aholi roziligini ta'minlashga qaratilgan bunday tadbirlar izchil davom ettirilmoqda. Bu boradagi ishlar, eng avvalo, har bir murojaatning ortida inson manfaati turganini unutmagan holda fuqarolarning buzilgan huquqlarini tiklash va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga xizmat qilmoqda.

Arman YERGUNUSOV,
Bosh prokuratura boshqarma
prokurori

Reklama

TANLOVDA ADASHMANG!

"Avtovoditel" xususiy korxonasi jamoasi O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi muassisligida chop etilayotgan "Vatanparvar" gazetasi jamoasini 34 yillik ayyomi bilan samimiy tabriklaydi.

Sizlarga mustahkam sog'liq, oilaviy baxt va quvonch, yurtimiz ravnaqi, xalqimiz farovonligi yo'lidagi fidokorona mehnatingizda ulkan zafarlar tilaymiz!

Fursatdan foydalanib, "Avtovoditel" xususiy korxonasiga qarashli avtomobil maktablari barcha xohlovchilarni avtomobil boshqarishning "A", "B", "BC", "C", "CE" hamda "D" toifalariga o'qishga taklif etadi. Mashg'ulotlar malakali mutaxassislar tomonidan olib borilishi kafolatlanadi. Shuningdek, bu yerda haydovchilar malakasini oshirish, amaliy boshqarishni o'rgatuvchi-ustalar tayyorlash kurslari ham faoliyat ko'rsatmoqda.



Xizmatlar litsenziyalangan.



Toshkent shahri Mirzo Ulug'bek tumani Yalang'och dahasi, Zafar Diyor ko'chasi, 119-"a" uy.



98 313-72-62

Hurmatli tinglovchilar! Sizlarga qulaylik yaratish maqsadida bir qancha tumanlarda ham avtomaktab filiallari tashkil etilgan.

Xalqaro hamkorlik

ISTIQBOLLI MUZOKARALAR OLIB BORILDI



O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti markaziy kengashi raisi Husan Botirov Yaponiya Yer, infratuzilma, transport va turizm vazirligida O'zbekiston va Yaponiya o'rtasidagi raqamli hamkorlik bo'yicha aloqa uyushmasi maslahatchisi Miyuki Suyuki bilan uchrashdi.

Ikki tomonlama muzokarada Yaponiyada vaqtincha haydovchi sifatida ishlash istagida bo'lgan o'zbekistonliklarga ushbu mamlakat yo'l harakati qoidalarini puxta o'rgatish va Toshkent shahrida hamkor davlat standartiga mos ravishda o'quv avtodromini barpo etish masalalari diqqat markazida bo'ldi. Shuningdek, kunchiqar mamlakatdan "Vatanparvar" tashkilotida shu maqsadda tuziladigan o'quv guruhlarining amaliy mashg'ulotlari uchun o'quv avtomobillari va tashkilotning motokross sportchilari uchun sport mototsikllarini O'zbekistonga olib kirish masalalari ham muhokama qilindi.

So'ngra "SHIMIZU" korporatsiyasining Toshkent shahridagi idorasi vakili Ulug'bek Nizomov bilan uchrashuvda Yaponiyaning qurilish sohasiga "Vatanparvar" tashkiloti o'quv muassasalarida texnik kasb-hunarlarni egallayotgan fuqarolarni jalb etish rejalari ko'rib chiqildi. Yaponiya vakolatli haydovchilik maktablari assotsiatsiyalari federatsiyasi rahbari Kendji Yamadzaki Husan Botirov boshchiligidagi delegatsiyani mazkur davlatning avtomaktablari faoliyati, o'quv avtodromlari va haydovchilik kasbiga o'qitish jarayonlari bilan tanishtirdi. Suhbat asnosida, O'zbekistonda qurilishi rejalashtirilayotgan avtodromning har tomonlama sifatli

va talab darajasida bunyod etilishi yuzasidan zarur tavsiyalarini berdi.

Tiba prefekturasidagi avtomaktabda uyushtirilgan ekskursiya esa delegatsiya a'zolari uchun ayni muddao bo'ldi. Avtomaktabning ijrochi direktori Isida Takexiro ularni innovatsion texnologiyalar bilan jihozlangan sinfxonalar va o'quv dasturlari bilan tanishtirdi. O'quv muassasasi rahbari, shuningdek o'zbekistonlik haydovchilarning Yaponiya dasturlari asosida tayyorlanishi yuzasidan o'zining maslahatlarini berib, u rahbarlik qilayotgan avtomaktab ushbu sohada "Vatanparvar" tashkilotiga doim konsultatsion va uslubiy yordam berib borishga tayyor ekanini bildirdi.

O'zbekiston kubogi



Toshkent shahrida O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti tomonidan sportning triatlon turi bo'yicha O'zbekiston kubogining birinchi bosqich musobaqasi o'tkazildi.

YOSH TRIATLON sportchilari aniqlandi

Unda mamlakatimizning turli hududlaridan kelgan 100 dan ortiq sportchi uchta yosh toifasida g'oliblik uchun bahs olib bordi.

19 yosh va undan katta yoshdagi erkaklar va ayollar hamda 16-18 yoshli o'g'il va qizlar musobaqa shartlariga ko'ra, 750 metr masofaga suzish, 20 kilometr masofaga velosipedda harakatlanish va 5 kilometr masofaga yugurish bo'yicha o'zaro bellashdi. 12-15 yoshli o'g'il bolalar va qizlardan esa 350 metr masofaga suzish, 10 kilometr masofani velosipedda bosib o'tish va 2,5 kilometr masofaga yugurish talab etildi.

Murosasiz va qizg'in kechgan kubok musobaqasi quyidagi natijalar bilan yakunlandi:

19 yosh va undan katta erkaklar o'rtasida:

1-o'rin: Abduazim Sodirov (Toshkent sh.);

2-o'rin: Shahzod Rahimov (Qashqadaryo v.);

3-o'rin: Abdulloh Mo'minov (Toshkent sh.).

19 yosh va undan katta ayollar o'rtasida:

1-o'rin: Shahribonu (Toshkent v.).

16-18 yoshli o'g'il bolalar o'rtasida:

1-o'rin: Azizullo Qo'chqorov (Andijon v.);

2-o'rin: Behruzbek Begmatov (Toshkent sh.);

3-o'rin: Azizillo Abdulxodiyev (Andijon v.).

16-18 yoshli qizlar o'rtasida:

1-o'rin: Dayana Lukiyenko (Toshkent sh.);

2-o'rin: Gulhida Irisboyeva (Toshkent v.);

3-o'rin: Nursima Joljabayeva (Qoraqalpog'iston R.).

12-15 yoshli o'g'il bolalar o'rtasida:

1-o'rin: Vladislav Slastyon (Surxondaryo v.);

2-o'rin: Alixon Abduvoitov (Toshkent sh.);

3-o'rin: Akilbek Doshurmatov (Qoraqalpog'iston R.).



12-15 yoshli qizlar o'rtasida:

1-o'rin: Mubinoxon Botirova (Toshkent sh.);

2-o'rin: Dilrabo Adialimova (Navoiy v.);

3-o'rin: Anelya Siyilbekova (Toshkent v.).

Jamoa hisobida:

1-o'rin: Toshkent shahri;

2-o'rin: Qashqadaryo viloyati;

3-o'rin: Toshkent viloyati.

G'oliblar va sovrindorlar "Vatanparvar" tashkilotining diplom va qimmatbaho sovg'alari bilan taqdirlandi.

Biz – vatanparvarlarmiz!

BOLALARNING VAQTI MAZMUNLI O'TKAZILDI

O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti Qashqadaryo viloyati kengashi tasarrufidagi Shahrisabz tumani o'quv sport-texnika markazi tomonidan tumandagi "Lochin" bolalarni sog'lomlashtirish oromgohida "Biz – vatanparvarlarmiz!" mavzusida harbiy-vatanparvarlik tadbiri o'tkazildi.

Qurolli Kuchlar faxriylari hamda Ma'naviyat va ma'rifat markazi viloyat bo'limi bilan hamkorlikda bolalar va o'smirlarning bo'sh vaqtlarini yanada mazmunli o'tkazish maqsadida tashkil etilgan tadbir mavzusi asosan Vatanga muhabbat, o'qish va sportga qiziqish xususida bo'ldi.



Uchrashuv davomida "Vatanparvar" tashkiloti tizimidagi "Karting", "Motokross", "Duatlon", "Pnevmatik quroldan o'q otish" bo'yicha sport seksiyalarining ko'rgazmalari namoyish etildi. Tashkilotdagi sportning texnik va amaliy turlari seksiyalarida qatnashish istagini bildirgan o'quvchilarga zarur maslahatlar va yo'nalishlar berildi.

Ayniqsa, tashkilotning karting va duatlon bo'yicha yosh sportchilari tomonidan tashkil etilgan ko'rgazmali chiqishlar barchada katta taassurot qoldirdi.

Xonandalar va harbiy orkestr tomonidan ijro etilgan kuy-qo'shiqlar tadbirga yanada ko'tarinki ruh bag'ishladi.

O'quv-uslubiy yig'in

O'LOV – TILSIZ YOV

Surxondaryo viloyati Jarqo'rg'on tumani Kakaydi qo'rg'onida joylashgan harbiy qismlarning birida qo'mondonlik tasarrufidagi hamda Termiz, Kakaydi va Xayrobod garnizonlari hududida joylashgan harbiy qismlarning yong'indan saqlash xizmati boshliqlari va bo'linmalari shaxsiy tarkibi ishtirokida o'quv-uslubiy yig'in o'tkazildi.



Tadbir yong'indan saqlash xizmati bo'linmalari shaxsiy tarkibining kasbiy bilim va amaliy ko'nikmalarini yanada mustahkamlash, zamonaviy yong'in o'chirish texnikalarining taktik-texnik imkoniyatlarini chuqur o'rganish, yong'in sodir bo'lganda bo'linmalarning o'zaro hamkorlikdagi harakatlarini takomillashtirish hamda favqulodda vaziyatlarda tezkor va samarali harakat qilish salohiyatini oshirish maqsadida tashkil etildi.

Yig'inning nazariy qismida ishtirokchilarga harbiy qism va muassasalarda yong'in profilaktikasini samarali tashkil etish, yong'indan saqlash xizmati bo'linmalarida jangovar hamda ma'naviy-ma'rifiy tayyorgarlikni olib borish, xizmat va ish hujjatlarini belgilangan tartibda yuritish, yong'in o'chirish

texnikalaridan to'g'ri foydalanish va ularni saqlash, shuningdek yong'inlarni bartaraf etishda qo'llaniladigan zamonaviy taktik usullar yuzasidan batafsil ma'lumotlar berildi. Mashg'ulotlar davomida xizmat faoliyatida uchrayotgan ayrim muammoli masalalar muhokama qililib, ularning yechimlari bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Yig'inning amaliy qismiga Termiz garnizoni hududida joylashgan harbiy qismlar hamda hamkorlikdagi kuch tuzilmalarining yong'in o'chirish ekipajlari jalb qilindi. Jarayonda harbiy



qism hududidagi obyektlardan birida shartli yong'in holati yaratilib, uni bartaraf etish bo'yicha maxsus-taktik mashq o'tkazildi. Mashq real sharoitga maksimal darajada yaqinlashtirilgan holda tashkil etilgan mazkur tadbirda bo'linmalarning tezkor harakatlanishi, yong'in o'chirish vositalaridan unumli foydalanishi, suv ta'minotini yo'lga qo'yishi hamda o'zaro muvofiqlashtirilgan jangovar harakatlari sinovdan o'tkazildi.

Mashg'ulot davomida zamonaviy yong'in o'chirish avtomobillarining imkoniyatlari amalda namoyish etildi, shaxsiy tarkib tomonidan yong'inni qisqa fursatda bartaraf etish, yong'in tarqalishining oldini olish va shartli jabrlanganlarni xavfsiz hududga olib chiqish bo'yicha belgilangan me'yorlar muvaffaqiyatli bajarildi.

Nilufar ERGASHEVA,
TerDU talabasi



Reklama

O'QUV KURSLARIMIZGA MARHAMAT!



“Avto mohir” avtomobil maktabi jamoasi “Vatanparvar” gazetasi tashkil etilganiga 34 yil to'lishi munosabati bilan ijodiy jamoani hamda barcha mushtariylarni muborakbod etadi.

“Vatanparvar” gazetasining bundan keyingi faoliyati ham yanada rivoj topishini tilaymiz.

Fursatdan foydalanib, “Avto mohir” mas'uliyati cheklangan jamoasi barcha yoshlarni avtomobil boshqarishning “B”, “BC”, “CE” toifali o'quv kurslariga taklif qiladi.

Nazariy va amaliy mashg'ulotlar malakali mutaxassislar tomonidan olib borilishi kafolatlanadi.

Bundan tashqari, yaqinda bugungi kun talablari asosida barpo etilib, tinglovchilar ixtiyoriga topshirilgan avtodromda amaliy mashg'ulotlar zamonaviy rusumli o'quv-mashq avtomobillarida olib borilmoqda.



“B”



“BC”



“CE”



Xizmatlar litsenziyalangan.

- Malakali o'qituvchilar
- Zamonaviy o'quv avtomobillari
- Nazariya va amaliyot uyg'unligi
- Sifatli ta'lim – ishonchli kelajak!



Keles shahri, “Xuvaydo” MFY,
Keles yo'li ko'chasi, 63-uy.



95 081-01-65

Hikoya

ASKARNING singlisi

Tong Mohira uchun har doimgidek boshlanmadi. Uygʻonganida deraza ortida quyosh allaqachon koʻtarilib boʻlgandi, lekin xonadonda hayot harakati yoʻq, faqat onasining past ovozda oʻqiyotgan duosi eshitilar, oshxonadan choy hidining oʻrniga nimaningdir yoqimsiz hidi dimoqqa urilib turardi. Oʻsha kuni akasi Jamshid harbiy xizmatga joʻnardi.

Avtobus bekatida odamlar koʻp, baʼzilar kulib gaplashar, baʼzilar koʻzyoshi qilib turardi. Jamshid yelkasida kichik sumka, yuzida beparvo tabassum. U singlisining koʻzlariga qaradi.

– Xafa boʻlma, – dedi u yengil ohangda – bir yil koʻz yumib-ochguncha oʻtib ketadi. Majburiyatni ado etib kelaman, xolos.

Mohira indamadi. “Majburiyat” soʻzi unga sovuq eshitildi. Goʻyo akasi oʻz xohishi bilan emas, boshqa biron toʻgʻri deb aytgani uchun ketayotgandek. Avtobus harakatga kelganda, Mohira koʻzlariga yosh kelayotganini sezdi, biroq yutib yubordi, yigʻlash katta qizga yaramaydi, deb oʻyladi.

Kundalik hayot oʻz iziga tushgandek boʻldi. Maktab, darslar, qoʻshnilarning shovqini, hammasi odatdagidek. Ammo kechqurunlari hovliga chiqqanda, Mohira beixtiyor akasining xonasi tomon qarar, u yerdan chiqib keladigan Jamshidni kutayotgandek toʻxtab qolardi. Eshik yopiq, xona jim. Stolda qolib ketgan ruchkasi, tokchadagi kitoblar – bularning bari endi soʻzsiz gapirayotgandek.

Birinchi xat ikki haftadan keyin keldi. Qisqa, loʻnda:

“Hammasi joyida. Qiyin emas. Majburiyatni bajaryapmiz”.

Mohira xatni bir necha bor oʻqidi. Yozuv tanish – Jamshidniki. Lekin soʻzlar begona. “Yoʻqlagim keldi”, “Qishloqni sogʻindim” degan gaplar yozilmagan. Faqat rasm: yigit oʻzini kuchli koʻrsatmoqchi va buning uchun barcha his-tuygʻuni ixchamlab, xatga sigʻdirmoqchi. Mohira xatni dasturxon ostiga yashirdi, onasiga koʻrsatsa, u ham xuddi shunday oʻylardi.

Qish kirib keldi. Qor yogʻdi. Mohira pech yonida dars qilar, onasi esa xirgoyi qilib, jun yigirdi. **Xatlar kelaverishda davom etdi – ikkinchisi, uchinchisi ham oʻshanaqa: “mashgʻulotlar”, “tartib”, “hammasi yaxshi”.** Mohira ularni oʻqir, lekin bir necha bor qaytarmay, shunchaki buklab qoʻyardi.

Bir kuni qor boʻronida pochta yon kechroq keldi. Konvert odatdagidan

Surat sunʼiy intellekt yordamida tayyorlandi



qalinroq edi. Mohira uni ochdi va oʻqiy boshlagach, yurak urishi tezlashdi:

“Bugun navbatchilikda edim. Tun sokin, lekin oʻzgacha bir narsa sezdim: yer, havo, uzoqdagi qishloq chiroqlari – bularning hammasi kimningdir xizmati tufayli tinch turibdi. Oʻsha kimsa, bu kecha men boʻldim. Bu tuygʻu ogʻir ham, ulugʻ ham...”

Mohira shu jumlada toʻxtab qoldi. Koʻzlari qayta-qayta bir satrga qaytdi: **“Oʻsha kimsa, bu kecha men edim”.** Bu boshqa Jamshid edi. Hissiyotni yashiradigan emas, balki endi his-tuygʻusini ochgan Jamshid.

U xatni onasiga olib kirdi. Onasi esa oʻqiy-oʻqiy koʻziga yosh oldi.

Bahor keldi. Xatlar tez-tez kela boshladi. Jamshid faqat oʻzi haqida emas – xizmatdosh doʻstlari, komandirlari, Vatan degan soʻzning vazni haqida yozardi. Bir xatda shunday jumla bor edi:

“Postda turish – bu shunchaki yerda oyoq bilan turish emas. Bu – ichingdagi hushyor yurakning doimiy urishi”.

Mohira bu jumlaning daftari koʻchirdi. Keyin akasining bolaligidan qolgan eski daftari topdi: unda oddiy orzular, chizilgan rasmlar bor edi. Ikki daftarni yonma-yon qoʻyib qarar ekan, bir narsa aniq koʻrindi, akasi endi boshqa odam.

Maktabda “Vatan himoyachilari” mavzusida tadbir oʻtkazildi. Sinf rahbari Mohirani sahnaga chaqirdi. Oldinlari u bunday paytlarda qizarib, nima deyishini bilmay qolardi. Bu safar esa sahnaga chiqib, zalga tikildi va soʻz boshladi:

– Men askarlikni oldin shunchaki majburiyat deb oʻylardim. Endi bilaman, bu biz tinch uxlay olishimiz uchun kimningdir uxlamasligi va sergakligidir.

Zalda birzum sukunat choʻkdi. Keyin qarsaklar yangradi. Mohira sahnadan tushar ekan, yuragida birinchi bor aniq bir his paydo boʻldi – faxr.

Xizmat tugaydigan kuni qishloq erta uygʻondi. Mohira esa tunda uxlamadi.

Eshik oldida kutib oʻtirdi, kichkina boʻlsa-da, qoʻliga gul ushlagan.

Jamshid koʻchadan kirdi. Qaddi toʻgʻrilangan, nigohi qatʼiy. Qarindoshlar uni oʻrab oldi, ammo Mohiraning nazarida bu shovqin biroz uzoqda. U faqat akasining koʻzlariga qarab turardi. Oʻsha koʻzlarda – ketgan paytdagi beparvo yigit yoʻq. Uning oʻrnida boshqa bir odam turardi, oʻzi ham sezmaganda ulgʻayib qaytgan inson.

Kechqurun ular hovlida oʻtirishdi. Osmon toʻla yulduz, qishloq ustida sokinlik. **Mohira jim qoldi, soʻng soʻradi:**

– Aka, qoʻrqmadingizmi?
Jamshid biroz oʻylanib qoldi.
– Qoʻrqdim, – dedi u, – lekin bir narsani angladim, qoʻrquv seni toʻxtatib qoʻymasligi kerak. Agar sen chekinsang, orqangdagilar nima qiladi?

Mohira bu gaplarda shunchaki mardlik emas, balki masʼuliyat his qildi. Bu soʻzlar tajribadan chiqqandi.

– Aka, men siz bilan gʻururlanaman.
– Men ham sen bilan – deya, Jamshid singlisining boshini silab qoʻydi.

Mohira askarlik shunchaki **“bir yillik majburiyat”** emasligini, **qoʻrqsang ham ortga chekinmaslik, oilang seni “askarimiz” deb iftixor bilan tilga olishi uchun oʻzingni bir chetga surib, Vatan tinchligi yoʻlida xizmat qilish ekanini anglagandi.**

Osmonda yulduzlar charaqlab turardi. Ularning orasida bittasi boshqalaridan yorqinroq koʻrinardi. Mohira oʻsha yulduzga tikilib qoldi va ichida pichirladi – **“Har bir tinch tun ortida kimningdir bedorligi bor...”**

Oybonu TUXTASINOVA, Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi M.S. Vosiqova nomidagi akademik litsey katta oʻqituvchisi



MUASSIS
OʻZBEKISTON RESPUBLIKASI
MUDOFAA VAZIRLIGI

VATANPARVAR



Tahririyat kengashi:

general-mayor Hamdam Qarshiyev
podpolkovnik Ulugʻbek Fattaxov
Maqsud Abilov

Tahririyatga kelgan qoʻlyozmalar taqriz qilinmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin. Gazeta Mudofaa vazirligi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar departamenti – “Vatanparvar” birlashgan tahririyatining kompyuter markazida sahifalandi.

Bosh muharrir:

podpolkovnik Ahror Ochilov

ISSN 2010-5541

Gazeta Oʻzbekiston Matbuot va axborot agentligida 2008-yil 6-iyunda 0535 raqami bilan roʻyxatga olingan.

Telefonlar:

kotibiyat: 55 511-25-90
buxgalteriya: 55 511-25-76
yuridik boʻlim: 55 511-25-72

Navbatchi: leytenant Mansurbek Jabborov

Sahifalovchi: Dilnoza Meliqoʻziyeva

Musahhih: Mastura Qurbonova

Buyurtma: V-6153

Hajmi: 6 bosma taboq

Bichimi: A3

Adadi: 31 947 nusxa

Bosishga topshirish vaqti: 14:00

Topshirildi: 14:30

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “IBRAGIMOV RAHIMJON MAXMUDOVICH” YaTT masʼul.

Gazeta juma kuni chiqadi.
Gazeta 1992-yilning 24-iyunidan chiqa boshlagan.

Nashr koʻrsatkichi: 114.
Bahosi: kelishilgan narxda.

“IBRAGIMOV RAHIMJON MAXMUDOVICH” YaTT bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Alisher Navoiy koʻchasi, 30-uy.

1 2 3 4 5 6

Manzilimiz: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani Sagʻbon koʻchasi, 382-uy.

@Vatanparvargazetasi_bot
“Vatanparvar” birlashgan tahririyati bilan bogʻlanish uchun telegram bot



BIZ HAQIMIZDA



www.mudofaa.uz



t.me/mv_vatanparvar_uz
t.me/mudofaavazirligi



www.mv-vatanparvar.uz
vatanparvar-bt@gmail.uz



mudofaavazirligi



mudofaavazirligi



www.youtube.com/c/UzArmiya